FVV
Vaziyat

XAVF-XATAR MAYDONIDA QALQONMIZ XALQ YONIDA

Gazeta 2004-yil 7-maydan chiqa boshlagan

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi nashri

2026-YIL 22-OKTYABR № 43 (1088)



QUTQARUVCHI– JASORAT TIMSOLI, INSON HAYOTI HIMOYACHISI

TIL SIYOSATI:

u yangilansagina maqomi va nufuzi oshadi



TIL BO‘LMASA, JAMIYAT HAYOTINI, KISHILAR O‘RTASIDAGI O‘ZARO MUNOSABATNI TASAVVUR ETISH UMUMAN MUMKIN EMAS. U FIKRIMIZNI IFODA QILISH, RASMIY HUJJATLARNI YURITISH, OG‘ZAKI VA YOZMA SAVODXONLIKNI OSHIRISH, QOLAVERSA, ZAMON ZAYLIGA MUVOFIQ RAVISHDA IJTIMOIY TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH ASOSI HAM BO‘LIB BORMOQDA.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo miqyosida tirik va o‘lik tillar ro‘yxati bo‘lib, shundan 69 tasi faol, rasmiy maqomga egadir. Ana shular orasida o‘zbek tili ham bor. Har bir yurtdoshimiz, har bir millatdoshimiz o‘z ona tiliga umrbod murojaat qiladi. O‘zbekiston – dunyoning ko‘plab davlatlari bilan diplomatik aloqa o‘rnatib kelayotgan ko‘pmillatli yurt. Prezidentimizning ana shu davlatlarga rasmiy tashrifi va o‘z navbatida, o‘zga davlat rasmiy doiralarining yurtimizga qadam ranjida etishi ana shu siyosiy jarayonni qamrab oladi. Xalqaro hamkorlikning kengayishi, ayniqsa, oliy o‘quv yurtlari faoliyatida yaqqol seziladi.

XORIJLIK TALABALAR O‘ZBEK TILINI O‘RGANISHMOQDA

Yer yuzining sayqali – Samarqand shahridagi chet tillar instituti dunyoning yetakchi davlatlari oliy o‘quv yurtlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygani, boz ustiga xorijiy talabalarning aynan o‘zbek tilini o‘rganish uchun bu dargohga vaqti-vaqti bilan kelayotgani ijobiy hodisadir. Institutning xalqaro aloqalar bo‘limi tomonidan aynan o‘zbek tilini ommalashtirish masalasi hamisha kun tartibida turadi.

– Xorijiy talabalar uchun ona tilimizni o‘rganish imkoniyatini yaratganmiz, – deydi mazkur oliy o‘quv yurtining xalqaro hamkorlik bo‘limi boshlig‘i Bahodir Berdialiyev. – Institut AQShning Indiana shtatidagi Blumington, Germaniyaning Gumboldt, Italiyaning Neapol sharqshunoslik universitetlari bilan o‘zaro hamkorlik qilib kelmoqda. Mazkur oliy o‘quv yurtlarida ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi islomshunoslik, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, sharqshunoslik fakultetlari faoliyat yuritsa-da, o‘zbek tilini o‘qitish yo‘lga qo‘yilmagan. Markaziy Osiyodagi yetakchi davlat bo‘lgani uchun ham xorijda yurtimizga qiziqish katta. Shu bois ham, zikr etilgan universitetlar bilan imzolangan memorandumga muvofiq, ularning talabalari o‘zbek tilini o‘rganish bo‘yicha belgilangan muddatlarda institutimizga keladilar. 5, 10, 12, 14 kunlik qisqa muddatli kurslarda xorijiy talabalar uchun o‘zbek tili bo‘yicha maxsus ta’lim dasturlari ishlab chiqilgan va o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etilmoqda. Jumladan, joriy yilning 29-martidan 10-apreliga qadar Germaniyaning Gumboldt universiteti yoshlari uchun o‘zbek tili darslari o‘tildi. Ona tilimiz grammatikasi, kundalik muloqotda qo‘llaniladigan so‘z va iboralar, xalqimiz tarixi va madaniyatiga oid bilimga ega bo‘lish ularni mamnun etdi. May oyida AQShning Blumington universiteti talabalari uchun bir haftalik o‘zbek tili mashg‘ulotlari o‘tkazildi. Bu jarayon xorijiy talabalarning o‘zbek tilida muloqot qilish ko‘nikmasini rivojlantiribgina qolmay, O‘zbekistonning boy tarixi, milliy qadriyatlari va madaniy merosi bilan yaqindan tanishish imkoniyatini ham yaratadi. 3–22 avgust kunlari esa Italiyaning Neapol sharqshunoslik universiteti talabalari uchun “Explore the Ancient Cities in New Uzbekistan” nomli yozgi maktab tashkil etildi. Dastur doirasida ishtirokchilarga o‘zbek tili intensiv mashg‘ulotlari o‘tkazilib, Samarqand va Buxoroning qadimiy obidalari to‘g‘risida ma’lumot berildi. Bu loyihalar nafaqat til o‘rganish uchun, balki xalqlar o‘rtasidagi madaniy va akademik aloqalarni ham mustahkamlamoqda. Xorijiy talabaning o‘zbek tilini bevosita O‘zbekistonda, ona tilida so‘zlashuvchilar muhitida o‘rganishi ularga noodatiy hodisa sifatida zavq-shavq beradi. O‘z navbatida, institutimiz professor-o‘qituvchilari ham xorijiy universitetlarga borib, o‘zbek tilini o‘rganish bo‘yicha seminar-trening o‘tkazib qaytishmoqda.

HIND YIGITIGA OFARIN!

Millati boshqa bo‘la turib, o‘zbek tilida ravon, bexato so‘zlashadiganlarni ko‘rganmisiz? Bir-ikkitasini ko‘rgansiz va qoyil qolgansiz! To‘g‘ri, ular talaffuzida sof o‘zbekona ohang sezilmasligi mumkin. Lekin ixlos va ishtiyoq bilan ikkinchi bir tilni o‘rganayotgan o‘zga millat vakillariga ofarin!

Hind ziyolisi Afzal Mahbub o‘zbek tilida emin-erkin gaplasha oladigan zamondoshlarimizdan biri. U Hindistonning Dehli shahrida istiqomat qiladi. Bir necha yillardan beri tibbiyot turizmi bilan shug‘ullanib kelayotgan yosh mutaxassisning o‘zbek tilini o‘zlashtirishi O‘zbekiston xalqi uchun manfaatli bo‘lmoqda. Ya'ni qanday? Aholi o‘rtasida uchrayotgan jigar sirrozi, yurak va buyrak yetishmovchiligi, saraton kasalliklarini davolash bo‘yicha Hindiston ilg‘or davlatlar qatoriga kiradi. Aynan shu xastaliklarga chalingan ba'zi o‘zbekistonliklar tibbiyot sayyohligi firmalariga murojaat qilibgina o‘z mushkulliklariga yechim topmoqda. Afzal Mahbub xuddi shunday rasmiy maqomdagi “Afzal Healthcare” tibbiyot sayyohlik firmasini boshqarib keladi.

– O‘zbekiston haqida ko‘p eshitardim. Ulug‘ ajdodlaringiz – Imom al-Buxoriy, Imom Moturidiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy yashab o‘tgan ona zaminga qiziqmaslik mumkin emas. Ular ta'limotini chuqurroq o‘rganish uchun Dehli shahridagi Jamia Millia Islomiya universitetida ustoz Shahid Islomdan o‘zbek tili sabog‘ini oldim. Menga bir yil yetarli bo‘ldi. Agar inson astoydil niyat qilsa, buning uchun qat'iy kurashsa, maqsadiga erishadi. Hozir menga o‘zbek tilida muloqot qilish juda oson. Firmamiz ko‘proq Dehli shahridagi “Fortis”, “Aakash”, “Max Smart”, “Amrita” xususiy klinikalari bilan hamkorlik o‘rnatgan. Hindistonning davolash dargohlarini qidirayotgan bemorlarga ishonchli manzilni topishda ko‘maklashaman. O‘zbekistondan kelayotgan bemorlar tilimizni bilishmaydi, hind shifokorlari esa o‘zbekchadan bexabar. Ikkala tomon uchun tarjimonlik qilishning savobi katta. Bemor bilan shifokor o‘rtasidagi muloqotda “ko‘prik” bo‘layotganim uchun minnatdorlik bildirishadi. Jigar, yurak, buyrak implantatsiyasiga qaror qilgan, saraton kasalliklarining turli bosqichlarini boshdan kechirayotgan bemorlarning asosiy qismi O‘zbekistonga sog‘ayib qaytishi uchun ozmi-ko‘pmi hissam qo‘shilayotganidan behad mamnunman. Avvalo, O‘zbekiston xalqining boshi omon bo‘lsin! Alloh turli xastaliklardan o‘zbek xalqini asrasin! – deydi Afzal Mahbub cheksiz faxr-iftixor bilan.

O‘zbekistonda davlat tilining qo‘llanishi bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy hodisalarning sanog‘i yo‘q. Har birida o‘zbek tiliga murojaat qilinadi, uning imloviy, morfologik, fonetik, stilistik imkoniyatlari qo‘l keladi. Zero, o‘zbek tilining boshqa tillardan nufuzi, qadri aslo kam emas. Shunday ekan, davlat idoralari, mahalliy va ijro hokimiyati organlari rahbarlari til siyosatida sobitqadam bo‘lishi kerak! Keng jamoatchilik vakillari ona tilin ardoqlash, uning mavqeini oshirish bilan bog‘liq jarayonda bir yoqadan bosh chiqarsa, nafaqat millatdoshlarimiz, balki yuqorida ta'kidlanganidek, Afzal Mahbub singari o‘zga mamlakat fuqarolarida ham tilimizga nisbatan qiziqish va e’tibor kuchayar edi.

Hulkar TO‘YMANOVA,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist

FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLISH VA ULARNI BARTARAF ETISH, TABIIY OFATLAR XAVFINI KAMAYTIRISH HAMDA TRANSCHEGARAVIY XUSUSIYATGA EGA FALOKATLARGA DAVLATLARNING BIRGALIKDA JAVOB QAYTARISHIDA XALQARO HAMKORLIKNING O‘RNI MUHIM AHAMIYAT KASB ETADI. AYNI SHU HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASH MAQSADIDA TOSHKENT SHAHRIDA 19-20-OKTYABR KUNLARI MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI FAVQULODDA VAZIYATLAR IDORALARI RAHBARLARINING MINTAQAVIY FORUMI O‘TKAZILDI.



XALQARO EKSPERTLAR TOSHKENTDA





Mazkur keng qamrovli xalqaro anjuman O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati, Qizil Xoch va Qizil Yarim Oy jamiyatlari xalqaro federatsiyasi, Favqulodda vaziyatlar va ofatlar xavfini kamaytirish markazi, shuningdek, BMT ning Ofatlar xavfini kamaytirish bo‘yicha boshqarmasi hamkorligida tashkil etildi. Unda Markaziy Osiyo davlatlarining favqulodda vaziyatlar sohasidagi vakolatli idoralari rahbarlari va vakillari ishtirok etdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vaziri Azizbek Ikramov, Qirg‘iz Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vaziri Kanatbek Chinibayev, Tojikiston Respublikasi Hukumati huzuridagi Favqulodda vaziyatlar va fuqaro mudofaasi qo‘mitasi raisi Rahmonali Rajabali, Qozog‘iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vitse-vaziri Yerbolat Sadirbayev hamda Turkmaniston mudofaa vaziri o‘rinbosari Dovran Durdiyev ishtirok etdi. Tadbirda ilk bor kuzatuvchi sifatida Ozarbayjon Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi delegatsiyasi ham ishtirok etgani alohida ahamiyatli.

Forum ishtirokchilari va ma’ruzachilari qatorida BMT TDning O‘zbekistondagi doimiy vakili Akiko Fudji, GIZ vakili Sergey Makarov, Yaponiyaning O‘zbekistondagi Favqulodda va Muxtor Elchisi Kendzi Xirato, shuningdek, xalqaro tashkilotlar vakillari hamda sohaviy ekspertlar bevosita mavzu yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirdi.

HAMJIHATLIK – MINTAQAVIY XAVFSIZLIK GAROVI

Forum dastlab mintaqaviy hamkorlikning asosiy yo‘nalishlariga bag‘ishlangan panel sessiyalar bilan start oldi. Ularda shaharlarning tabiiy ofatlar va iqlim o‘zgarishi xavflariga nisbatan barqarorligini oshirish, seysmik xavfsizlikni ta’minlash, transchegaraviy suv resurslarini xavfsiz boshqarish salohiyatini mustahkamlash, shuningdek, sel va suv toshqinlari xavfini kamaytirish masalalari muhokama qilindi.

Shu bilan birga, sessiyalarda bir nechta davlat hududlarini qamrab oluvchi yirik ko‘lamli favqulodda vaziyatlarga xalqaro miqyosda javob qaytarishning mintaqaviy mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, O‘zbekistonga qo‘shni davlat hisoblanuvchi Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Turkmaniston ekspertlari mintaqa davlatlari o‘rtasidagi amaliy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ma’ruzalar va tashabbuslarni taqdim etdilar. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi mutaxassislari ham aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha o‘z takliflarini ilgari surdi.

Muhokamalar yakunida ishtirokchilar tomonidan birgalikdagi transchegaraviy loyihalarni amalga oshirishga asos bo‘lib xizmat qiladigan hujjatlar va tashabbuslarni yanada takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab olindi.

ZAMONAVIY RAQAMLI YECHIMLAR

20-oktyabr kuni forumning asosiy tadbirlari, jumladan, rasmiy ochilish marosimi, asosiy ma’ruzachilarning chiqishlari, taqdimotlar hamda mavzuga oid videomateriallar namoyishi bo‘lib o‘tdi.

Muhokamalar doirasida ishtirokchilar Markaziy Osiyoning yirik shaharlari tabiiy xavf-xatarlar va iqlim o‘zgarishiga nisbatan barqarorligini oshirish, “Barqaror shaharlar koalitsiyasi” tashabbusi doirasida shaharlar o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish hamda seysmik xavfsizlikni mustahkamlash masalalarini ko‘rib chiqdilar. Erta ogohlantirish va o‘zaro axborot almashish tizimlarini joriy etish, aholining zilzila xavfi to‘g‘risidagi xabardorligini oshirish hamda ehtimoliy favqulodda vaziyatlarga tayyorgarligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi.

Shuningdek, yirik ko‘lamli va transchegaraviy xususiyatga ega favqulodda vaziyatlarga xalqaro miqyosda javob qaytarish mexanizmlarini takomillashtirish, sel va suv toshqinlari oqibatlarini kamaytirish, xavf mavjud bo‘lgan daryo havzalarining mintaqaviy ma’lumotlar bazasi, onlayn-katalogi va elektron xaritasini yaratish, shuningdek, Markaziy Osiyoda landshaftlar barqarorligini tiklash ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilandi.

Favqulodda vaziyatlarni prognoz qilish, axborot almashinuvi samaradorligini oshirish, ularning oldini olish va bartaraf etish jarayonlarida harakatlarni muvofiqlashtirishni takomillashtirishda zamonaviy raqamli yechimlar va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish muhimligi alohida ta’kidlandi.

Markaziy Osiyo davlatlari favqulodda vaziyatlar idoralari rahbarlarining mintaqaviy forumi yakunida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish masalalaridagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan bir qator hujjatlar imzolandi.

Mazkur tadbir tajriba almashish, qo‘shma tashabbuslarni muhokama qilish va mintaqaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha keyingi qadamlarni belgilab olish uchun muhim muloqot maydoni bo‘ldi. Erishilgan kelishuvlarning amalga oshirilishi Markaziy Osiyo davlatlarining tabiiy va texnogen xavf-xatarlarga tayyorgarligini oshirish, aholi va hududlar muhofazasini mustahkamlash, shuningdek, favqulodda vaziyatlarga birgalikda javob qaytarish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Forum aholisi xavfsizligini ta’minlash, xavflarning oldini olish va ularning oqibatlarini kamaytirishning samarali tizimini shakllantirishda mintaqa davlatlari hamda xalqaro hamkorlarning sa’y-harakatlarini birlashtirish muhim ahamiyatga ega ekanini yana bir bor tasdiqladi.

Behzod HAMROYEV,
FVV Axborot xizmati
katta ofitseri, mayor





AVVALO, SHUNI TA’KIDLAB O‘TISH LOZIMKI, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI (FVV) TIZIMIDA SO‘NGGI YILLARDA, XUSUSAN 2025-2026- YILLARDA DAVLAT NAZORATINI KUCHAYTIRISH, KORRUPSIYANI YO‘QOTISH, RAQAMLASHTIRISH VA SOHANI ILMIY-TEXNIK RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA KENG QAMROVLI ISLOHOTLAR AMALGA OSHIRILMOQDA. TIZIMDAGI ENG ASOSIY ISLOHOTLAR VA YANGILANISHLAR KO‘PLAB YO‘NALISHLARNI QAMRAB OLGAN.



VAZIYAT VA IMKONIYATNING FAVQULODDA MARRALARI

(FVVda amalga oshirilgan islohotlar va rivojlanishning yangi bosqichga ko‘tarilishi)

Dastlab boshqaruv va qonunchilikdagi yangilanishlarga to‘xtalib o‘tsak. Keyingi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan qurilish obyektlariga ruxsat berish va binolarni foydalanishga topshirishda yong‘in xavfsizligi bo‘yicha byurokratiya hamda korrupsiya holatlariga chek qo‘yish maqsadida vazirlik rahbariyati tarkibi tubdan yangilandi va inson omili kamaytirildi. Vazirlik faoliyati Favqulodda vaziyatlar vaziri Azizbek Ikramov boshchiligida yangi strategik rejalar asosida davom ettirilmoqda.

Sohadagi faoliyatning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash maqsadida “Favqulodda vaziyatlar organlari to‘g‘risida”gi yangi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasini ishlab chiqish belgilangan. Davlatimiz rahbarining qarori bilan Favqulodda vaziyatlar vazirligi to‘g‘risidagi yangi Nizom tasdiqlandi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq, Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Ushbu dasturning bosh maqsadlari ilmiy-texnik va innovatsion loyihalarni amaliyotga keng joriy etish, Favqulodda vaziyatlarni oldindan monitoring qilish, axborot almashinuvi va prognozlash tizimini to‘liq raqamlashtirishdan iboratdir.

Kadrlar tayyorlash va volontyorlikni qo‘llab-quvvatlash borasida ham e’tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishda faollik ko‘rsatgan ko‘ngillilarga (volontyorlarga) FVV Akademiyasi bakalavriat yo‘nalishiga o‘qishga kirishda to‘plagan ballarining 5 foizi miqdorida qo‘shimcha ball berish tizimi joriy etildi.

Shu o‘rinda bir masalaga diqqatingizni qaratmoqchimiz. Keyingi yillarda poytaxtimizda “Nest One” va “Pyramid Tower” kabi osmono‘par binolar soni ortib bormoqda. Biroq bunday baland inshootlarning yuqori qavatlarida yong‘in sodir bo‘lsa, aholi qanday qutqariladi? FVV avtonarvonlari 72 metrgacha yetishini hisobga olsak, 40–50-qavatlarda yong‘in qanday bartaraf etiladi va xavfsizlik qay tarzda ta’minlanadi? Bu haqda FVV vazir o‘rinbosari Xurshid Sotiyev shunday ma’lumot berdi:

– Eng baland avtonarvonlarimiz 72 metrgacha yetadi. Undan balandlikka mo‘ljallangan, masalan, 100 metrlik texnikani joylashtirish uchun juda keng maydon kerak bo‘ladi. Shuning uchun baland qavatli imoratlarni qurishda yetakchi xorijiy davlatlarning aynan yong‘in xavfsizligiga oid normativ hujjatlari o‘rganilib, loyiha bosqichida takliflarimiz kiritilmoqda.

Uning so‘zlariga ko‘ra, baland binolarda tutundan himoyalangan zinapoyalar va yong‘inga qarshi liftlar bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, sprinkler va drencher kabi avtomatik yong‘in o‘chirish tizimlari ham muhim ahamiyatga ega. Sprinkler tizimida harorat belgilangan darajaga yetganda suv avtomatik ravishda sepiladi, drencher tizimi esa yong‘in sodir bo‘lgan hududdagi bir nechta suv purkagichni bir vaqtda ishga tushiradi.

Shaharsozlik sohasida profilaktika boshqarmasi bosh mutaxassisi Aziz Abduazizovning aytishicha, baland binolarda yong‘in xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha xorijiy tajribalar o‘rganilib, ularni mamlakatimizda qo‘llash choralari ko‘rilmoqda. Jumladan, Birlashgan Arab Amirliklari, Xitoy va Janubiy Koreyaning baland binolarda yong‘inni o‘chirish hamda aholini himoya qilish bo‘yicha tajribalari o‘rganilmoqda.

Shu o‘rinda joriy yilning avgust oyida Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasida Mustaqilligimizning 35 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan “Yangi O‘zbekistonda favqulodda vaziyatlar sohasini rivojlantirish: xavfsizlik, inson huquqlarini ta'minlash va raqamli texnologiyalarni joriy etishning dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumaniga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Anjumanda so‘zga chiqqanlar tomonidan xavfsizlikni ta'minlash va inson huquqlarini himoya qilish, favqulodda vaziyatlar sohasini rivojlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish hamda sohada ilm-fan va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish masalalari yuzasidan fikr va mulohazalar bildirildi.

Anjuman doirasida Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasining Ilmiy-innovasion tadqiqotlarni muvofiqlashtirish va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo‘limi ilmiy xodimi, katta leytenant Sherali Mustaqimov tomonidan zamonaviy ilmiy-innovatsion texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan uchuvchisiz uchish apparati, shuningdek, uning ilmiy ishlanmalari va ixtirolari taqdimoti ham o‘tkazildi.

Zamonaviy ilmiy-innovasion texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan mazkur uchuvchisiz uchish apparati (dron) favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etishga mo‘ljallangan. Ushbu loyiha xavfsizlikni ta'minlashda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va sohaga innovatsion yechimlarni tatbiq etish maqsadida yaratilgan bo‘lib, FVV tizimidagi ilmiy anjumanlar va ko‘rgazmalarda avval ham namoyish etilgan. Mazkur uchuvchisiz uchish apparati muhim vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Masalan, inson yetib borishi qiyin bo‘lgan ofat hududlarida kuzatuv, tezkor qidiruv-qutqaruv ishlari olib boradi. Tabiiy hamda texnogen xususiyatli xavflarni masofadan turib erta aniqlaydi. Yong‘inlar, suv toshqinlari yoki boshqa favqulodda vaziyatlarda real vaqt (onlayn) rejimida ma’lumotni uzatish xususiyatiga ega.

> Yana bir tadqiqotchimiz FVV Akademiyasining Yong‘in va qutqaruv texnikalari kafedrasida faoliyat yuritayotgan tadqiqotchi va innovator Shohjahon Xurramovdir. U ilmiy izlanishlarini favqulodda vaziyatlarda inson hayotini asrashga xizmat qiladigan amaliy qurilmalar bilan bog‘lab kelmoqda. Uning loyihalari orasida suv osti razvedka droni, akustik yong‘in o‘chirish qurilmasi, yong‘in joyini razvedka qiladigan uchuvchisiz uchish apparati, quyosh panellarini tozalovchi robot, masofadan boshqariladigan mobil patformalar va Akademiya uchun raqamli axborot tizimi mavjud.

– Ilmiy faoliyatim xavfli hududlarda razvedka ishlarini texnika vositalari yordamida bajarish masalasiga qaratilgan, – deydi tadqiqotchi. – Suv ostida ko‘rish imkoniyatining cheklanishi, kuchli oqim, bosim, aloqa masofasi va apparatninng barqarorligini saqlash kabi omillar qutqaruvchilar ishini murakkablashtiradi. Shu sababli suv osti uchuvchisiz apparatlarini favqulodda vaziyatlar sharoitiga moslashtirish vositalari, usullari va algoritmlarini takomillashtirish ustida ishlamoqdaman. Mazkur yo‘nalishdagi asosiy ishlanma kamera, sonar, yoritish, bosim datchigiva manipulyator bilan jihozlangan suv osti razvedka dronidir. Apparat gidrotexnik inshootlarni ko‘zdan kechirish, suv ostidagi to‘siqlar va noma’lum obyektlarni aniqlash, qidiruv-qutqaruv ishlarida kuzatuv olib borish hamda suv tubi haqida ma’lumot topish uchun mo‘ljallangan.

Qahramonimizning ushbu loyihasi startap tanlovida g‘olib deb topilib, o‘n ming AQSH dollari miqdoridagi grant bilan taqdirlandi.

Shohjahon Xurramovning faoliyatida yoshlarning texnik ijodkorligini qo‘llab-quvvatlash muhim o‘rin tutadi. Ilmiy to‘garak doirasida kursantlar bilan muammoni aniqlash, texnik yechim izlab chiqish, elektron komponentlarni tanlash, dasturlash, prototip yig‘ish va sinov natijalarini tahlil qilish bosqichlari izchil tashkil etilayotgani e’tirofga molikdir. Ayni jarayonlar kursantlarga nazariy bilimni amaliy vazifa bilan bog‘lash va jamoada loyiha yuritish tajribasini beradi. Bunday yondashuv esa FVV tizimi uchun zarur texnologiyalarni mahalliy sharoitda yaratish va yosh mutaxassislarni loyiha faoliyatiga jalb etishga xizmat qilmoqda. Zero, har bir sohadagi yangi vaziyat va imkoniyatlar ana shunday bilimli yurtdoshlarimizning tinimsiz izlanishlari tufayli yangi bir bosqichga ko‘tarila oladi.

Muxtasar TOJIMAMATOVA,
“Vaziyat” muxbiri



MASHAQQATLI KASB, SHARAFLI BURCH

BA’ZAN INSONNING KASB TANLASHIGA HALI U KICHKINA BOLA EKANIDA YURAGIDA PAYDO BO‘LGAN ODDIY BIR HAVAS SABAB BO‘LADI. AMMO O‘SHA HAVASNI YILLAR DAVOMIDA SAQLAB QOLISH, UNI HAYOTIY MAQSADGA AYLANTIRISH VA TANLAGAN YO‘LIDA SADOQAT BILAN MEHNAT QILISH HAR KIMGA HAM NASIB ETAVERMAYDI.

Surxondaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Termiz shahar Favqulodda vaziyatlar bo‘limi qutqaruv qismi katta usta-qutqaruvchisi Sirojiddin Saidovning bu sharafli kasbga intilishi va kirib kelishida ham ana shunday bolalik havasi muhim o‘rin tutgan. Bugun esa u ko‘p yillik xizmat tajribasiga ega qutqaruvchi sifatida insonlar hayoti va mol-mulkini, qolaversa, mamlakatimiz osoyishtaligini asrashga hissa qo‘shib kelmoqda.

Sirojiddin Saidov 1989-yil 4-may kuni Surxondaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tumanidagi Qorako‘rsak mahallasida ziyolilar oilasida tug‘ilgan. 2007-yilda maktabni a’lo baholarga tamomlagan. Shu yilning 10-oktabr kuni Toshkent shahrining Mirobod tumanida Ichki ishlar vazirligiga qarashli 7531-qorovul qo‘shinlarida harbiy xizmatni boshlagan. 2008-yil 26-noyabr kuni harbiy xizmatni yakunlab, uyiga qaytgan. Harbiy xizmatdan keyin Surxondaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Qo‘riqlash boshqarmasining Termiz shahar qo‘riqlash bo‘limida ishlay boshladi. Biroq vaqt o‘tgan sari uning yong‘in-qutqaruv xizmatiga bo‘lgan qiziqishi kuchayib bordi. Yong‘in o‘chiruvchilarning murakkab vaziyatlarda harakat qilishi, xavf ostida qolgan insonlarga yordam berishi unda katta taassurot uyg‘otdi. U ham shu sohada xizmat qilishni maqsad qildi.

Bu qiziqishning ildizi esa ancha oldingi chog‘larga borib taqaladi. Sirojiddin bolaligidan amakisi Imomov O‘tkirga havas qilgan. Uning xizmat kiyimiga qarab, bir kun kelib o‘zi ham shu sohada ishlashni orzu qilgan. Yillar o‘tib, bolalikdagi havas hayotiy maqsadga aylandi. 2017-yilda Surxondaryo viloyati Yong‘in xavfsizligi boshqarmasining Termiz shahridagi 1-harbiylashtirilgan yong‘in o‘chirish qismiga katta yong‘in o‘chiruvchi lavozimiga ishga qabul qilindi. Yoshligimda amakim O‘tkir akaning ishdan qaytishini kutib o‘tirardim. Xizmat kiyimlariga havas qilardim. Keyinchalik shu kasbni tanladim va bugun insonlarga yordam berish yo‘lida xizmat qilayotganimdan faxrlanaman, – deydi Sirojiddin Saidov.

Qutqaruvchilik faoliyati tezkorlik bilan birga hushyorlik, sovuqqonlik va vaziyatni to‘g‘ri baholashni ham talab etadi. Chunki har bir chaqiruv ortida qanday hodisa turganini oldindan bilish qiyin. Qutqaruvchilar voqea joyiga yetib borgach, vaziyatni tezda o‘rganishi, xavf darajasini aniqlashi va zarur choralarni ko‘rishi kerak. Bunday sharoitda shoshqaloqlik emas, puxta tayyorgarlik va aniq qaror muhim ahamiyatga ega.

Sirojiddin Saidov 2025-yil yanvar oyidan buyon Surxondaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Termiz shahar Favqulodda vaziyatlar bo‘limi qutqaruv qismida katta usta-qutqaruvchi lavozimida xizmatini davom ettirib kelmoqda. Faoliyati davomida mingdan ortiq yong‘in va qidiruv-qutqaruv ishlarida qatnashgan.

Xizmat yillarida u turli murakkab vaziyatlarga duch kelgan. Ayniqsa, qahraton qish kunlarida uzoq vaqt davom etadigan yong‘inlarni bartaraf etish qutqaruvchilardan katta jismoniy bardosh va sabr-toqat talab qiladi. Sovuq ob-havo, charchoq va xavf-xatarga qaramay xizmat vazifasini bajarish, insonlar hayoti va mol-mulkini asrash asosiy maqsad bo‘lib qolaveradi.

Qahramonimiz uchun kasbining eng quvonchli jihati – yordamga muhtoj insonlarning omon qolishi va ularning yuzidagi xursandchilikni ko‘rish. Yong‘in oqibatlarini bartaraf etish jarayonida odamlarning sog‘lig‘i va mol-mulkini saqlab qolishga erishish unga o‘z mehnatining ahamiyatini yana bir bor his ettiradi. Qahramonimiz xotirasida alohida o‘rin tutgan voqealardan biri Termiz shahridagi 6-umumiy o‘rta ta’lim maktabida sodir bo‘lgan yong‘in bilan bog‘liq. U ushbu hodisa vaqtida yosh o‘quvchilarni qutqarish, ularni olov bag‘ridan eson-omon olib chiqish ishlarida qatnashgan. Bolalarni xavfsiz hududga olib chiqish va ularning omonligini ta’minlash jarayoni qutqaruvchining yodida saqlanib qolgan. Yosh bolalarning xavfsiz joyga yetkazilgandan keyingi quvonchi uning kasbiga bo‘lgan hurmatini, mas’uliyat zalvorini yanada oshirgan.

2026-yil 27-iyul kuni Termiz tumanidagi yonilg‘i saqlash omborida sodir bo‘lgan yong‘in ham katta mas’uliyat va tezkorlikni talab etgan hodisalardan biri bo‘ldi. Sirojiddin Saidov ushbu yong‘inni bartaraf etishda faol ishtirok etib, olovning katta maydonga tarqalishi oldini olish va ulkan talafotlar yuz berish xavfini kamaytirishga munosib hissa qo‘shdi. Shuningdek, yong‘in vaqtida qariyb 20 nafar ishchi-xizmatchini xavfsiz hududga evakuatsiya qilish ishlarida jonbozlik ko‘rsatdi.

Bunday hodisalarda qutqaruvchilarning har bir harakati muhim hisoblanadi. Yong‘inning tarqalishini cheklash, odamlarni xavfli hududdan olib chiqish va boshqa ko‘ngilsiz oqibatlarning oldini olish o‘zaro hamjihatlikni, tajribani hamda xizmatga mas’uliyat bilan yondashishni talab etadi. Qutqaruvchilarning kasbiy tayyorgarligi va jamoaviy harakati favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda muhim o‘rin tutadi.

Sirojiddin Saidov oilali, bir nafar farzandning otasi. Xizmatdagi mas’uliyatli vazifalari bilan bir qatorda, oilasiga ham vaqt ajratadi. Insonlar xavfsizligi yo‘lida mehnat qilish, yaqinlariga mehr ko‘rsatish va farzandiga munosib tarbiya berish uning hayotidagi muhim qadriyatlardandir.

U kelgusida ham o‘z kasbida sidqidildan xizmat qilish, orttirgan tajribasini yosh avlodga yetkazish va munosib ustoz bo‘lishni maqsad qilgan. Uning nazarida, tajribali xodimning vazifasi faqat xizmat burchini bajarish bilan cheklanmaydi. Yosh mutaxassislarga yo‘l ko‘rsatish, kasb sirlarini o‘rgatish va ularda mas’uliyat hissini shakllantirish ham muhim.

Men bu sohaga kelganimda tajribali ustozlardan ko‘p narsani o‘rganganman. Ularni hozir ham yaxshi xotiralar bilan eslayman. Men ham kelayotgan yoshlarga yaxshi o‘rnak va ustoz bo‘lishni, vaqti kelib nafaqaga chiqqanimda meni yaxshi xotiralar bilan eslashlarini istayman, – deydi u.

Qutqaruvchilik u uchun shunchaki kasb emas, balki insonlar hayoti va xavfsizligi uchun mas’uliyatni zimmasiga olish demakdir. Sirojiddin Saidov o‘z xizmat faoliyati orqali ana shu mas’uliyatni ado etib, hamkasblari va yosh qutqaruvchilarga munosib o‘rnak bo‘lishga intilmoqda. Ma’lum ma’noda buning uddasidan ham chiqmoqda.

Kasbga sadoqat yillar davomida qilingan mehnat, orttirilgan tajriba va insonlar hayotiga daxldor mas’uliyatda namoyon bo‘ladi. Qutqaruvchining faoliyati esa bu fazilatlarni har kuni sinovdan o‘tkazadi. Chunki uning mehnati zamirida birovning hayotini asrash, oilalarning xotirjamligini ta’minlash va og‘ir vaziyatlarda odamlarga yordam qo‘lini cho‘zishdek ezgu maqsad mujassam.

Sirojiddin Saidov uchun ham xizmatning qadr-qimmati, avvalo, insonlar omonligi va el ishonchini oqlash bilan belgilanadi. U kelgusida ham o‘z kasbiga sodiq qolish, yoshlarga tajribasini o‘rgatish va munosib ustoz sifatida iz qoldirishni niyat qilgan.

Zero, insonning haqiqiy qadri egallagan lavozimi yoki orttirgan tajribasidangina emas, balki el-yurt manfaatiga qo‘shgan hissasi, boshqalarga ko‘rsatgan yaxshiligi va ortidan qoldirgan ibratli faoliyat yo‘li bilan o‘lchanadi. Shoir Erkin Vohidov aytganidek:

Sendan farzandingga bog‘ qolsin, ey do‘st,

Bog‘ing Vatan degan nom olsin, ey do‘st.

Gulnora SHERMATOVA,
“Vaziyat” muxbiri

SARIOSIYO TUMANIDA UCHRASHUV

TA’LIM MUASSASALARIDA YOSHLARNI ILM-MA’RIFATGA OSHNO ETISH, ULARDA MILLIY QADRIYATLARGA HURMAT, TARIXIY XOTIRAGA SADOQAT, ONA VATANGA MUHABBAT VA JAMIYAT OLDIDAGI MAS’ULIYAT TUYG‘ULARINI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN MA’NAVIY-MA’RIFIY TADBIRLAR ALOHIDA O‘RIN TUTADI. AYNIQSA, HAYOTNING TURLI SINOVLARIDAN O‘TGAN, KO‘P YILLIK XIZMAT FAOLIYATI DAVOMIDA BOY TAJRIBA TO‘PLAGAN INSONLARNING YOSHLAR BILAN YUZMA-YUZ MULOQOTLARI O‘G‘IL-QIZLAR QALBIDA EZGU MAQSADLARNI UYG‘OTISHI, ULARNI KELAJAK SARI DADIL QADAM TASHLASHGA RUHLANTIRISHI BILAN AHAMIYATLIDIR.





Surxondaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Faxriylar kengashi raisi Raxmon Begimov va a’zolari tomonidan Sariosiyo tumanidagi Prezident maktabida tashkil etilgan uchrashuv ham ana shunday ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlardan biri bo‘ldi. Unda yosh avlod tarbiyasi, Vatanga muhabbat, yurt tinchligi va osoyishtaligini qadrlash, ajdodlar merosiga hurmat hamda insoniy fazilatlarni kamol toptirish kabi muhim masalalar haqida so‘z yuritildi.

Sariosiyo tumanidagi Prezident maktabida o‘tkazilgan uchrashuv davomida ham yoshlar bilan samimiy muloqotga alohida e’tibor qaratildi. Suhbatlarda Vatan taqdiri, yurt ravnaqi, tinchlikning qadri, insoniylik va ma’naviy barkamollik kabi mavzularning mazmun-mohiyati haqida fikr yuritildi. Surxondaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Faxriylar kengashi raisi va a’zolarining Prezident maktabi o‘quvchilari bilan uchrashuvi ham ana shu ezgu maqsadga yo‘naltirilgani bilan e’tiborlidir.

Yosh avlod tarbiyasi bir kunlik yoki bir martalik tadbir bilan cheklanadigan jarayon emas. Bu doimiy e’tibor, izchil hamkorlik va mas’uliyatni talab qiladigan muhim vazifadir. Unda oila, ta’lim muassasalari, mahalla, jamoat tashkilotlari va hayotiy tajribaga ega faxriylarning hamkorligi katta ahamiyatga ega.Har bir uchrashuv yoshlar qalbida yangi fikr uyg‘otishi, ularni o‘z ustida ishlashga undashi, kelajak rejalari haqida chuqurroq o‘ylashga chorlashi mumkin. Eng muhimi, bunday tadbirlar yoshlarning Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirib, ularni mamlakat taraqqiyotida faol ishtirok etishga ruhlantiradi.

Surxondaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Faxriylar kengashi raisi va a’zolarining Sariosiyo tumanidagi Prezident maktabi o‘quvchilari bilan uchrashuvi ham ana shu maqsadlar yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir. Unda ilgari surilgan vatanparvarlik, Vatanga sadoqat, ajdodlar merosiga hurmat, bilim olish va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga doir qarashlar yoshlar tarbiyasining dolzarb masalalarini qamrab oladi.

Zero, bugungi yoshlarning qalbiga singdirilgan ezgu g‘oyalar ertangi kunning mustahkam poydevoridir. Vatanini sevgan, xalqining tarixini qadrlagan, bilimga intilgan va o‘z burchini chuqur anglagan avlod har qanday taraqqiyotning tayanchi bo‘la oladi.

Zulfiya SOHIBOVA,
Surxondaryo viloyati FVB Axborot xizmati yetakchi mutaxassisi

ENG KUCHLI volontyor yoshlar



FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI TIZIMIDA ILK BOR FAVQULODDA VAZIYATLAR VOLONTYORLARI ISHTIROKIDA “VOLONTYOR-QUTQARUVCHI” MUSOBAQASINING RESPUBLIKA BOSQICHI BO‘LIB O‘TDI. FVV AKADEMIYASIDA O‘TKAZILGAN MAZKUR BELLASHUVNING YAKUNIDA HUDUDIY BOSQICHLARDA G‘OLIB BO‘LGAN 14 TA JAMOA O‘ZARO BELLASHDI.

Tadbirda Favqulodda vaziyatlar vaziri o‘rinbosari, polkovnik Nuriddin Qodirov, Akademiya rahbariyati, O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi vakillari, vazirlikning hududiy boshqarma va tuzilmalari harbiy xizmatchilari hamda volontyor yoshlar ishtirok etdi.

Musobaqa 5 ta shart – savol-javob, birinchi yordam ko‘rsatish, dor yo‘li va chodir, kross fit hamda estafeta shartlari asosida tashkil etildi.

Unda ishtirokchilar jismoniy tayyorgarlik, jamoaviy hamkorlik va favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish bo‘yicha o‘z bilim hamda ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazdilar. Bellashuvlar davomida ular jismoniy chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik va muvofiqlashtirilgan holda harakat qilish qobiliyatlarini namoyon etdilar.

Yakuniy natijalarga ko‘ra: I o‘rinni Toshkent shahar FVBB ning favqulodda vaziyatlar volontyorlari jamoasi, II o‘rinni Qoraqalpog‘iston Respublikasi FVBning favqulodda vaziyatlar volontyorlari jamoasi, III o‘rinni Farg‘ona va Buxoro viloyatlari FVBlarining favqulodda vaziyatlar volontyorlari jamoalari egalladi.

Mazkur musobaqa aholini favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ular yuzaga kelganda to‘g‘ri va tezkor harakat qilishga o‘rgatish, volontyorlarning amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash hamda qutqaruv ishlarida jamoaviy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bunday tadbirlar volontyorlar safini kengaytirish va jamiyatda xavfsizlik madaniyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Farhodjon XOJAYEV,
FVV Akademiyasi Axborot xizmati rahbari, mayor



“Ochiq eshiklar kuni”

UYCHI TUMANI FAVQULODDA VAZIYATLAR BO‘LIMIGA QARASHLI 19-YONG‘IN-QUTQARUV QISMIDA 1-SONLI JASORAT MAKTABINING 5-6-SINF O‘QUVCHILARI ISHTIROKIDA “YOSH QUTQARUVCHI”, “QUTQARUVCHI — SHARAFLI KASB” HAMDA “MEN QUTQARUVCHI BO‘LAMAN!” MAVZULARIDA “OCHIQ ESHIKLAR KUNI” TADBIRLARI O‘TKAZILDI.

Tadbirdan ko‘zlangan asosiy maqsad yosh avlod qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlash, ularni qutqaruvchilik kasbiga qiziqtirish, yong‘in va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish, bunday holatlarda to‘g‘ri harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat bo‘ldi.

Tadbir davomida o‘quvchilar yong‘in-qutqaruv qismining kundalik faoliyati, qutqaruvchilarning mas’uliyatli va sharafli xizmati bilan yaqindan tanishdilar. Ularga yong‘in-qutqaruv texnikalari, maxsus asbob-uskunalar hamda qutqaruv anjomlarining vazifalari va ulardan foydalanish tartibi haqida batafsil ma’lumot berildi. Shuningdek, maxsus texnikalarning imkoniyatlari namoyish etilib, qutqaruvchilar tomonidan favqulodda vaziyatlarda amalga oshiriladigan tezkor harakatlar tushuntirildi.

Shu bilan birga, mas’ul mutaxassislar tomonidan “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish” mavzusida o‘quv mashg‘uloti tashkil etildi. Mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilarga yong‘in sodir bo‘lganda o‘zini tutish, xavfsiz joyga evakuatsiyalanish, yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish hamda xavfli vaziyatlarda kattalar va tegishli xizmatlarga murojaat qilish tartibi tushuntirildi.

Tadbirning amaliy qismida maxsus manekenlar va ko‘rgazmali vositalar yordamida birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha mashqlar o‘tkazildi. O‘quvchilar jabrlanganlarga dastlabki yordam ko‘rsatishning asosiy usullari bilan tanishib, amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash imkoniga ega bo‘ldilar.

Bunday tadbirlar yoshlarning favqulodda vaziyatlar haqidagi bilimlarini oshirish, ularda ehtiyotkorlik va mas’uliyat hissini shakllantirish, eng muhimi, inson hayotini asrab qolishga qaratilgan bilim va ko‘nikmalarni egallashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bugungi bilimdon va jasur yoshlar ertangi kunning fidoyi qutqaruvchilari, Vatan tayanchidir.

Xayrullo MAVLONOV,
Uychi tumani FVB boshlig‘i o‘rinbosari, podpolkovnik

Mirjalol DADAJONOV,
Uychi tumani FVB katta inspektori, kapitan

SPORT MAYDONIDA RAQIBGA QARSHI TURISH UCHUN KUCH VA MAHORAT, MA’LUM DARAJADA EHTIYOTKORLIK ZARUR BO‘LADI. AMMO FAVQULODDA VAZIYATDA INSON HAYOTINI ASRASHGA KIRISHGAN QUTQARUVCHIDAN BUNDAN HAM KO‘PROQ NARSA TALAB ETILADI: U VAZIYATNI BIR ZUMDA BAHOLASHI, SAROSIMAGA BERILMASLIGI VA MAS’ULIYATNI ZIMMASIGA OLISHDAN CHO‘CHIMASLIGI LOZIM.







POLVONLIK IRODASI, qutqaruvchilik mas’uliyati

Bunday fazilatlar bir kunda shakllanmaydi. Ularning zamirida yillar davomidagi mehnat, intizom va o‘zini hech ayamay sinovlardan o‘tkazish yotadi. Bu galgi qahramonimiz – “Uzbekistan GTL” MCHJ OFVB 43-QQ qutqaruvchisining hayot yo‘li sport bilan xizmat bir-birini to‘ldirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Sherbek Ablaqulov 1998-yil 1-yanvarda Qashqadaryo viloyatining Koson tumanida polvonlar oilasida tug‘ilgan. Otasi Yusuf polvon el orasida tanilgan kurashchilardan bo‘lgan, otasining akalari ham kurash bilan shug‘ullangan. Bugun ukasi Barmol Ablaqulov ham kurash bo‘yicha chempion. Demak, Sherbek ulg‘aygan oilada sportga mehr va polvonlik an’analari avloddan avlodga o‘tib kelgan. 2011-yilda Qarshi olimpiya zaxiralari maktab-internatining 7-sinfiga o‘qishga kirishi uning sport yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. 2014-yilda maktab-internatni tamomlab, Qarshi olimpiya zaxiralari sport kollejida tahsilni davom ettirdi. 2017-yilda kollejni bitirgach, shu ta’lim muassasasida murabbiy sifatida ish boshladi.

Sportdagi yutuqlar o‘z-o‘zidan kelmaydi. Ularning ortida muntazam mashg‘ulot, murabbiylar mehnati va sportchining o‘z ustida ishlashi turadi. Sherbek ham o‘zining kamol topishida ustozlari Azizbek Shonazarov, Nuriddin Aliyev, G‘ulom Bozorov, Jamshid Mardonov, Abbos Yaxshiboyev va Abdulla akalarning hissasi katta ekanini ta’kidlaydi.

– Sportchining natijasi faqat uning o‘z mehnati bilan belgilanmaydi. Orqada murabbiylarning zahmati, bergan maslahati va ishonchi turadi. Ustozlarimdan olgan saboqlarim bugungi yutuqlarimda muhim o‘rin tutadi, – deydi Sherbek.

Uning sportdagi natijalari salmoqli. Sherbek kurash bo‘yicha yetti karra O‘zbekiston chempioni, mamlakat kubogi g‘olibi va sohil kurashi bo‘yicha O‘zbekiston chempioni hisoblanadi. Prezident sovrini uchun o‘tkazilgan Al-Hakim at-Termiziy xalqaro turnirida bronza medalini qo‘lga kiritgan. 2018-yilda sambo bo‘yicha O‘zbekiston chempioni bo‘lgan. Universal jang yo‘nalishida ham u yuqori natijalarga erishdi: to‘rt karra O‘zbekiston chempioni va mamlakat kubogining uch karra g‘olibiga aylandi. 2024-yilda ushbu sport turi bo‘yicha Osiyo chempionatida birinchi o‘rinni egalladi. 2025-yilda Rossiyada o‘tkazilgan jahon chempionatida esa kumush medalni qo‘lga kiritdi.

Sherbek Ablaqulov 2019-yilda hayotidagi muhim hodisa bilan yuzlashdi: kurash bo‘yicha sport ustasi unvoniga sazovor bo‘ldi. 2024-yilda universal jang bo‘yicha sport ustasi, 2025-yilda esa xalqaro toifadagi sport ustasi unvonini oldi. 2026-yilda dzyudo bo‘yicha harbiylar o‘rtasidagi O‘zbekiston chempionatida g‘olib bo‘ldi. Shu yili 90 kilogramm vazn toifasida sohil kurashi bo‘yicha ham mamlakat chempionligini qo‘lga kiritdi.

Sportchining hayotida yana bir muhim yo‘nalish – qutqaruvchilik xizmati. Sherbek 2022-yildan buyon Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida xizmat qilib kelmoqda. Bugun u “Uzbekistan GTL” MCHJ OFVB 43-QQ qutqaruvchisi sifatida faoliyat yuritadi.

Qutqaruvchilikni tanlashiga sabab bo‘lgan jihatlar haqida toshiqib gapirar ekan, Sherbek bu kasbda insondagi jasorat va mas’uliyat alohida o‘rin tutishini aytadi. Uning fikricha, sport bilan muntazam shug‘ullanish qutqaruvchi uchun zarur bo‘lgan jismoniy chidamlilik, tezkorlik va intizomni rivojlantirishga yordam beradi. Biroq xizmat vazifalarini bajarishda kasbiy bilim, hushyorlik va jamoa bilan hamjihat ishlash ham muhim.

Qutqaruvchilik – mardlik va jasorat talab qiladigan kasb. Men sport bilan shug‘ullanganim uchun bu kasbning talablarini o‘zimga eng yaqin deb bildim. Sport insonni jismonan chiniqtiradi, intizomga o‘rgatadi. Ammo xizmatda faqat kuch-quvvatning o‘zi yetmaydi, har bir vaziyatga mas’uliyat bilan yondashish ham zarur, – deydi u.

Sherbek sport va xizmatni bir-biridan ajratmaydi. Uning uchun ikkalasi ham intizom, mas’uliyat va fidoyilikni talab qiladi. Bu jihat Favqulodda vaziyatlar vaziri kubogi uchun o‘tkazilgan kurash musobaqalaridagi natijalarida ham ko‘rinadi. U sport sohasida 2022-va 2023-yillarda birinchi o‘rinni egallagan, 2024-yilda uchinchi, 2025-yilda yana birinchi, 2026-yilda esa ikkinchi o‘ringa sazovor bo‘lgan. Qahramon



sportchilar uchun yaratilayotgan sharoitlarni ham qadrlaydi. U Favqulodda vaziyatlar vazirligi rahbariyatiga, Qashqadaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i Farhod Mirzayevga, shuningdek, Sardor Islomov va Feruz Salomovlarga minnatdorlik bildiradi. Sportchi kelgusida ham musobaqalarda jamoasi, vazirlik va mamlakat sharafini munosib himoya qilishga intilishini ta’kidlaydi.

U sport bilan birga ta’lim olishga ham e’tibor qaratgan. 2019-yilda Qarshi davlat universitetiga o‘qishga kirib, 2024-yilda uni muvaffaqiyatli tamomladi. Bu esa uning sport va xizmat bilan bir qatorda bilimini oshirib borishga ham intilganini ko‘rsatadi.

Sherbekning oldidagi maqsadlari aniq: xalqaro musobaqalarda O‘zbekiston bayrog‘ini balandlarga ko‘tarish, ko‘targanda ham qayta-qayta ko‘tarish, yangi chempionliklarni qo‘lga kiritish va kelajakda Olimpiya o‘yinlari medaliga munosib tarzda erishish. Shu bilan birga, u xizmat faoliyatida ham o‘sib, o‘z kasbini sevadigan, el-yurtga foydasi tegadigan ofitser bo‘lishni istaydi.

– Sportni ham, xizmatni ham hech ikkilanishlarsiz davom ettirishni maqsad qilganman. Kelajakda o‘z kasbini yaxshi biladigan, jasurlikni odatga aylantirgan, zimmasidagi vazifani sidqidildan bajaradigan ofitser bo‘lishni xohlayman. Sportda esa hali oldimga qo‘ygan marralarim ko‘p. Eng katta orzularimdan biri Olimpiya o‘yinlari medalini qo‘lga kiritish, – deydi Sherbek.

Yoshlarga maslahat berar ekan, u kimki yo‘li yorug‘ bo‘lishini istasa, ota-onaning ishonchini har qadamda oqlashi va ularning duosini alohida qadrlashi lozimligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ota-onaning farzandidan umid qilishi va uning kelajagiga ishonishi yoshlar uchun katta rag‘batdir. Ana shu ishonchni oqlash uchun esa tinimsiz mehnat qilish, tanlagan kasbiga sodiq qolish va qiyinchiliklar qarshisida ortga chekinmaslik kerak.

Sherbek Ablaqulovning hayot yo‘li sportdagi muvaffaqiyat bilan xizmatdagi mas’uliyatni uyg‘unlashtirish mumkinligini ko‘rsatadi. Polvonlar oilasida shakllangan kurash ruhi, ustozlardan olgan saboqlari va yillar davomidagi mehnati uni bugungi natijalarga olib keldi. Endi u erishilgan yutuqlar bilan kifoyalanmay, yangi marralar sari intilmoqda.

Zero, haqiqiy polvonlik faqat maydonda g‘alaba qozonish bilangina belgilanmaydi. U o‘z zimmasidagi mas’uliyatni his etish, qiyinchiliklar qarshisida sobit turish va el-yurt manfaatiga xizmat qilishda ham namoyon bo‘ladi.

Gulnora SHERMATOVA,
“Vaziyat” muxbiri

Sayyor qabul va o‘rganishlar

MA’LUMKI, KEYINGI YILLARDA TABIIY OFATLAR, TEXNOGEN HALOKATLAR, EPIDEMIYALAR, TERRORCHILIK HARAKATLARI HAMDA IJTIMOIY INQIROZLAR INSON HAYOTI VA SOG‘LIG‘IGA JIDDIY XAVF TUG‘DIRAYOTGANLIGI KUZATILMOQDA. BUNDAY SHAROITLARDA FAOLIYAT OLIB BORUVCHI QUTQARUVCHILAR KUCHLI RUHIY VA JISMONIY ZO‘RIQISHGA DUCH KELADILAR.

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari rahbariyati bilan hamkorlikdagi ommaviy sayyor qabullar davom ettirilmoqda.

Shunday qabul Surxondaryo viloyatining Jarqo‘rg‘on tumanida tashkil etilib, dastavval ochiq muloqot o‘tkazilib, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari uchun yaratilgan keng imkoniyat va imtiyozlar haqida ma’lumotlar berildi.

Qabulda mas’ullar qatnashuvida harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolari, pensionerlar va yoshlar tinglanib, murojaatlarni shu joyning o‘zida hal etish choralari ko‘rildi.

Shuningdek, huquqiy maslahatlar berilib, ko‘rib chiqish muddat talab etadigan murojaatlar nazoratga olindi.

Jarayonda mehnat yarmarkasi tashkil etilib, harbiy xizmatchilarning oila a’zolari va yoshlar uchun bo‘sh ish o‘rinlari taklif etildi.

Bundan tashqari, viloyatdagi qator harbiy tuzilmalarda o‘rganishlar ham olib borilib, mavjud sharoitlar, ta’minot turlari, mashg‘ulotlar o‘tkazish jarayoni va bunda zamonaviy harbiy hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari tatbiq etilishi va faoliyatga doir boshqa masalalarga e’tibor qaratildi.

Shuningdek, huquqbuzarliklarning, jumladan, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar, tegishli bino-inshootlarda olib borilayotgan qurilish-ta’mirlash ishlari ko‘zdan kechirildi

Begali XURRAMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi,
adliya podpolkovnigi

Ochiq muloqot

TOSHKENT HARBIY PROKURATURASI TOMONIDAN HARBIY XIZMATCHILAR O‘RTASIDA QONUN USTUVORLIGINI TA’MINLASH, HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH, SHUNINGDEK, HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISHGA QARATILGAN PROFILAKTIK TADBIRLAR IZCHIL DAVOM ETTIRILMOQDA.

Jumladan, Toifalangan obyektlarni qo‘riqlash qo‘shinlari qo‘mondonligi va uning tizimidagi harbiy qismlar shaxsiy tarkib ishtirokida videokonferensaloqa shaklida “Jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish, korrupsiyaviy jinoyatlar, ularning salbiy oqibatlari hamda ularning oldini olish chora-tadbirlari” mavzusida targ‘ibot tadbiri tashkil etildi.

Unda mazkur yo‘nalishlardagi amaldagi qonunchilik, jinoyat va huquqbuzarliklar uchun nazarda tutilgan javobgarlik, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning inson salomatligi hamda jamiyat xavfsizligiga salbiy ta’siri haqida batafsil ma’lumot berildi.

Qonunlarga qat’iy rioya etish, burchni vijdonan bajarish va korrupsiyaga qarshi kurashishda har bir harbiy xizmatchi mas’ul ekani alohida ta’kidlandi.

Yakunida ishtirokchilarni qiziqtirgan savollarga atroflicha javob berildi. Mavzu yuzasidan tayyorlangan videorolik ham barchani yanada hushyorlikka undadi.

Alisher QURBONOV,
Toshkent harbiy prokurorining yordamchisi,
adliya podpolkovnigi

Millat ona tili bilan tirikdir

Qarang, qanday baxt-a, ona tilimda
Vatanim, xalqimga bitmoq qo‘shiq, she’r.
Qancha yozsam shuncha ilhom ko‘nglimda,
Madh etganim sayin qalbim kuyla, der.

Yurtin sevgan har bir fidoyi farzand,
Ma’naviy o‘zligi – tilin saqlaydi.
Ulug‘lar ham axir aytishgan, garchand
Tilini asragan – elin asraydi.

Ha... Til taqdir bitgan muqaddas ne’mat,
Tarixan o‘zlikka singgan bitikdir.
Til va millat aro shudir purhikmat –
Millat ona tili bilan tirikdir!

Botir SOBIROV, Harbiy prokuratura xodimi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2026-YIL 3-APRELDAGI “FAVQULODDA VAZIYATLARDAN MUHOFAZA QILISH SOHASIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TUBDAN ISLOH QILISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA”GI PQ-123-SON QARORI IJROSI DOIRASIDA FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASIDA XALQARO TA’LIM HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH, ILG‘OR XORIJIY TAJRIBANI O‘RGANISH HAMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI O‘QUV JARAYONIGA KENG JORIY ETISHGA ALOHIDA E’TIBOR QARATILMOQDA.

MAHORAT DARSI





Mazkur qarorda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, ta’lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda xorijiy mutaxassislarni o‘quv jarayoniga faol jalb etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Ushbu vazifalar ijrosi doirasida Akademiya professor-o‘qituvchilari, tinglovchilari va kursantlari uchun Nigeriyalik iqtisodiyot fanlari doktori, professor Gabriel Ayodeji Ogunmola ishtirokida “Favqulodda vaziyatlar xavfsizligi bo‘yicha ta’lim: sun’iy intellekt, virtual reallik va global yondashuvlar” mavzusida mahorat darsi tashkil etildi.

Tadbir davomida xorijiy professor sun’iy intellekt, virtual reallik va boshqa innovatsion texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi imkoniyatlari, ularni favqulodda vaziyatlar xavfsizligi yo‘nalishida qo‘llashning amaliy jihatlari hamda mazkur texnologiyalar orqali mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish istiqbollari haqida batafsil ma’lumot berdi.

Ishtirokchilar mavzu yuzasidan o‘zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilib, xalqaro tajriba, innovatsion ta’lim metodlari va zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish masalalari bo‘yicha fikr almashdilar.

Mahorat darsi yakunida FVV Akademiyasi rahbariyati professor Gabriel Ayodeji Ogunmolaga tashrifi, mazmunli ma’ruzasi va xalqaro tajribasi bilan o‘rtoqlashgani uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Farhodjon XOJAYEV,
FVV Akademiyasi Axborot xizmati boshlig‘i,
mayor

XAVFSIZ xizmat garovi

MIRZACHO‘L TUMANI FAVQULODDA VAZIYATLAR BO‘LIMIDA SHAXSIY TARKIB, HARBIY XIZMATCHILAR HAMDA ULARNING OILA A’ZOLARI ISHTIROKIDA HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH, XIZMAT INTIZOMI VA QONUNIYLIKNI MUSTAHKAMLASHGA QARATILGAN TARG‘IBOT-PROFILAKTIKA TADBIRI O‘TKAZILDI.

Tadbirda Jizzax viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Shaxsiy xavfsizlik bo‘limi mas’ullari ishtirok etib, xodimlar va ularning oila a’zolariga huquqbuzarliklarning oldini olish, korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish, xizmat vazifalarini vijdonan va qonun talablari asosida bajarish masalalari yuzasidan tushuntirishlar berdilar.

Shuningdek, xizmat intizomiga qat’iy rioya qilish, korrupsiya va boshqa salbiy illatlarga yo‘l qo‘ymaslik, onlayn qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarga berilishning oqibatlari, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning inson hayoti hamda jamiyat uchun xavfi, diniy ekstremizm va yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolishning oldini olish borasida atroflicha ma’lumotlar ulashildi.

Uchrashuv davomida, ayniqsa, axborot xavfsizligi masalasiga alohida e’tibor qaratilib, ijtimoiy tarmoqlar va internetdan foydalanishda hushyorlikni oshirish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, turli shubhali manbalar va zararli axborotlar ta’siriga berilmaslik yuzasidan zarur tavsiyalar bildirildi.

Tadbirning muhim jihatlaridan biri — oilaviy muhitda profilaktika ishlarini kuchaytirish masalasi bo‘ldi. Oila a’zolari bilan alohida suhbatlar o‘tkazilib, farzandlar tarbiyasiga e’tiborni yanada kuchaytirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishini nazorat qilish hamda yoshlarni turli salbiy ta’sirlardan asrash masalasiga ham urg‘u qaratildi.

Tadbir so‘ngida ishtirokchilarga huquqbuzarlik va salbiy illatlarning insontaqdiriga ta’sirini aks ettiruvchi “Nadomat” videoroligi namoyish etildi.

Ta’kidlanganidek, bunday profilaktik tadbirlar shaxsiy tarkib o‘rtasida huquqiy ong va mas’uliyatni yuksaltirish, xizmat intizomini mustahkamlash hamda sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Marat ATABEKOV,
podpolkovnik

FAVQULODDA VAZIYATLARDA INSONNING TO‘G‘RI VA TEZKOR HARAKAT QILISHI KO‘P HOLLARDA UNING HAYOTINI ASRAB QOLISHI MUMKIN. SHU BOIS AHOLINING XAVFSIZLIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH, TURLI XAVFLI HOLATLARGA TAYYORLASH MUHIM VAZIFALARDAN BIRIDIR. QASHQADARYO VILOYATI FAVQULODDA VAZIYATLAR BOSHQARMASI TOMONIDAN JURNALIST VA BLOGERLAR ISHTIROKIDA TASHKIL ETILGAN PRESS-TURDA ANA SHU YO‘NALISHDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI O‘QITISH MARKAZIDA YARATILGAN SHAROITLAR NAMOYISH ETILDI.

TO‘G‘RI VA tezkor harakat zarur

OAV vakillari markazning zamonaviy o‘quv-amaliy bazasi, interaktiv vositalari, simulyatsion trenajorlari va virtual reallik – VR texnologiyalari bilan tanishibgina qolmay, ayrim mashg‘ulotlarni o‘zlari ham sinab ko‘rdi.

Markazda birinchi yordam ko‘rsatish, zilzila, sel, suv toshqini va ko‘chki kabi tabiiy ofatlar, texnogen xavflar, yong‘in hamda suvda xavfsizlik, tog‘larda harakatlanish, favqulodda vaziyatlarda xabar almashish kabi yo‘nalishlarda nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi.

Ayniqsa, VR texnologiyalari orqali yo‘l-transport hodisalari, yong‘in, xonadonlardagi xavfli holatlar, radiatsion, kimyoviy va biologik xavflar virtual muhitda modellashtiriladi. Bu esa tinglovchiga xavfli vaziyatni xavfsiz sharoitda boshdan kechirib, zarur harakatlarni amalda sinab ko‘rish imkonini beradi.

Markazdagi maxsus labirint ham amaliy tayyorgarlikning muhim qismi. Unda tutun bosgan yoki ko‘rish imkoniyati cheklangan sharoitda sarosimaga tushmasdan, xavfsiz chiqish yo‘lini topish va evakuatsiyalanish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Press-tur davomida OAV vakillari “Tarix va hozir” muzeyi bilan ham tanishdi. Muzeyda Favqulodda vaziyatlar tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari haqida ma’lumot beruvchi ko‘rgazmali materiallar jamlangan.

O‘quv mashg‘ulotlari yakunida tinglovchilarning bilim va ko‘nikmalari zamonaviy test tizimi orqali baholanadi. Shu tariqa, markazda nazariy bilimni amaliy mashg‘ulotlar va interaktiv texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirgan ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Tadbir yakunida jurnalist va blogerlar markaz faoliyati, o‘quv jarayoni va aholining xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan ishlar yuzasidan o‘zlarini qiziqtirgan savollarni mas’ullarga yo‘llab, tegishli javob oldilar.

Bunday markazlarning ahamiyati shundaki, inson xavfli vaziyatga duch kelganda nima qilish kerakligini aynan o‘sha paytda emas, oldindan bilishi lozim. Chunki favqulodda vaziyatda har bir soniya va har bir to‘g‘ri qaror inson hayoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Sohibjon VAYITOV,
Qashqadaryo viloyati FVB Axborot xizmati rahbari, mayor

E’TIBORSIZLIK – ENG YOMON ILLAT

FVV ISHCHI GURUHI TOMONIDAN JIZZAX VILOYATIDAGI BOZORLAR VA YIRIK SAVDO MAJMUALARIDA FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLISH VA YONG‘IN XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH MAQSADIDA O‘RGANISHLAR OLIB BORILMOQDA.



Jarayonlarda kirish-chiqish yo‘laklari, evakuatsiya yo‘llari, suv manbalari, birlamchi o‘t o‘chirish vositalari hamda yong‘indan himoya tizimlarining holati tekshirilmoqda. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan mas’ullarga tegishli topshiriqlar berilib, ularning ijrosi nazoratga olinmoqda.

Respublikamizning turli hududlarida savdo majmualari va bozorlarda sodir bo‘layotgan yong‘inlar tadbirkorlik subyektlariga katta miqdorda moddiy zarar yetkazish bilan birga, fuqarolar hayoti va sog‘lig‘iga ham jiddiy xavf tug‘dirishi aniq.

Bunday ko‘ngilsiz hodisalarning oldini olish, aholi gavjum maskanlarda xavfsizlikni ta’minlash hamda tadbirkorlik subyektlarining mol-mulkini muhofaza qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 8-sentabrdagi 393-son farmoyishi ijrosini ta’minlash yuzasidan joylarda keng ko‘lamli profilaktik ishlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu topshiriqlar ijrosi doirasida Jizzax viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tomonidan viloyat hududidagi bozorlar va savdo majmualarida yong‘in xavfsizligi holatini o‘rganish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rilmoqda.

O‘rganishlar davomida savdo rastalari va savdo hududlarining joylashuvi, elektr tarmoqlari va jihozlarining texnik holati, birlamchi yong‘in o‘chirish vositalari bilan ta’minlanganlik, evakuatsiya yo‘laklari va chiqish joylarining ochiqligi, shuningdek, yong‘in-qutqaruv texnikalarining hududga to‘sqinliksiz kirib borishi uchun kerak bo‘lgan sharoitlar yaratilmoqda.

Shu bilan birga, tadbirkorlar va savdo kompleksi mas’ullariga yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etish, elektr jihozlaridan belgilangan tartibda foydalanish, elektr simlari va ulanishlarida nosozliklarga yo‘l qo‘ymaslik, yonuvchan mahsulotlarni xavfsiz saqlash hamda ish kuni yakunida elektr jihozlarini nazoratdan o‘tkazish borasida tushuntirilmoqda.

Kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli choralar belgilanib, mas’ullarga ularni o‘z vaqtida bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar berilmoqda. Bunda asosiy e’tibor faqat mavjud kamchiliklarni aniqlashga emas, balki ularning kelgusida takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik, savdo obyektlarida xavfsiz muhitni shakllantirish va favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishining oldini olishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Shuni aytib o‘tish lozimki, bozor va savdo majmualarida xavfsizlikni ta’minlash faqat mas’ul xizmatlarning vazifasi emas. Bu jarayonda obyekt ma’muriyati, tadbirkorlar, ishchi-xodimlar va har bir savdo ishtirokchisining mas’uliyati kattadir. Birgina e’tiborsizlik yoki xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik ko‘plab insonlarning hayoti va sog‘lig‘iga tahdid solishi mumkinligini unutmaylik.

Iftixor UMAROV,
Jizzax viloyati FVB Axborot xizmati rahbari



XAVF OMILLARINI BARVAQT ANIQLAYLIK!

KUZ-QISH MAVSUMIDA AHOLI, AYNIQSA, TALABALAR YASHAYDIGAN OBYEKTLARDA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH, YONG‘INLARNING OLDINI OLISH HAMDA IS GAZIDAN ZAHARLANISH BILAN BOG‘LIQ KO‘NGILSIZ HOLATLARNING OLDINI OLISH MUHIM VAZIFALARDAN BIRIDIR.

Shu maqsadda Samarqand viloyatidagi oliy ta’lim muassasalarining talabalar turar joylari komendantlari, xo‘jalik bo‘limi mas’ullari hamda tyutorlari ishtirokida kuz-qish mavsumida xavfsizlikni ta’minlash masalalariga bag‘ishlangan seminar-yig‘ilish o‘tkazildi.

Tadbirda talabalar turar joylarida kuz-qish mavsumini xavfsiz o‘tkazish, yong‘in va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish, mavjud xavf omillarini barvaqt aniqlash hamda ularni bartaraf etish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Gaz va elektr jihozlaridan xavfsiz va to‘g‘ri foydalanish, isitish moslamalarini ishlatishda belgilangan talablarga rioya qilish, elektr tarmoqlariga ortiqcha yuklama bermaslik, nosoz yoki qo‘lbola isitish vositalaridan foydalanmaslik yuzasidan batafsil tushuntirishlar berildi.

Shuningdek, talabalar turar joylarida yong‘in xavfsizligi talablariga rioya etilishi, evakuatsiya yo‘laklari va chiqish eshiklarining doimo ochiq hamda foydalanishga tayyor holatda bo‘lishi, yong‘in o‘chirish vositalarining sozligi va mavjudligi, elektr jihozlaridan foydalanish tartibiga qat’iy amal qilish zarurligi ta’kidlandi.

Is gazidan zaharlanishning asosiy sabablari va uning oldini olish choralari ham muhokama qilindi. Xonalarni muntazam shamollatish, gaz jihozlari va mo‘rilarni texnik jihatdan soz holatda saqlash, ularni nazoratsiz qoldirmaslik hamda yotoqxonalarda xavfsizlik talablarini buzishga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Favqulodda vaziyat yuzaga kelganida talabalarning vahimaga tushmasdan, belgilangan tartibda harakat qilishi, zudlik bilan 101 yoki 1050 raqamlariga xabar berish, odamlarni xavfsiz hududga evakuatsiya qilish hamda qutqaruv xizmatlari xodimlari ko‘rsatmalariga amal qilish zarurligi tushuntirildi.

Samarqand viloyati FVB boshlig‘i o‘rinbosari, podpolkovnik Umid Ahrorov tomonidan talabalar turar joylarida xavfsizlikni ta’minlash mas’ullarining vazifalariga alohida to‘xtalib o‘tildi.

Mas’ullarga yotoqxonalarda xavfsizlik holatini muntazam nazorat qilish, aniqlangan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish, talabalar bilan profilaktik suhbatlarni tizimli tashkil etish hamda favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish yuzasidan aniq vazifalar belgilab berildi.

Zero, kichik e’tiborsizlik katta talafotlarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois kuz-qish mavsumida har bir mas’ul xodim, talaba va fuqaro xavfsizlik qoidalariga qat’iy amal qilishi, o‘zining hamda atrofidagilarning hayoti va salomatligini asrashi muhimdir.

Sa'dulla UMAROV,
Samarqand shahar FVB kichik inspektori,
3-darajali serjant

DOVONDA XAVFSIZ muhitni ta’minlash

YURTIMIZ BO‘YLAB 15-SENTYABRDAN 15-OKTYABR KUNIGA QADAR “YONG‘INDAN OGOHLIK” UMUMMILLIY KAMPANIYASI” OYLIGI ETIB BELGILANGAN EDI. MAZKUR OYLIK DOIRASIDA DOVONDAGI KO‘KSAROY SAVDO RASTASIDA MAXSUS-TAKTIK O‘QUV MASHQI O‘TKAZILDI.

Mashg‘ulot davomida shartli yong‘inni bartaraf etish, fuqarolarni xavfsiz hududga evakuatsiya qilish va birlamchi yong‘in o‘chirish vositalaridan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha amaliy harakatlar bajarildi. Bu kabi mashqlar xodimlarning tayyorgarligini oshirish, vaziyatni tez baholash va favqulodda holatlarda sarosimaga berilmasdan harakat qilish ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oylik doirasida dovondagi bozorlar, savdo do‘konlari va umumiy ovqatlanish shoxobchalarining yong‘in xavfsizligi holatiga ham e’tibor qaratilmoqda. Mutaxassislar tadbirkorlar va ishchi-xodimlarga birlamchi yong‘in o‘chirish vositalarini ishga yaroqli holda saqlash, elektr jihozlaridan xavfsiz foydalanish, evakuatsiya yo‘laklarini ochiq tutish va yong‘in sodir bo‘lganda to‘g‘ri harakatlanish yuzasidan tavsiyalar bermoqda. Shuningdek, fuqarolarga yong‘inning oldini olish, xavfni barvaqt aniqlash va mas’ul xizmatlarga tezkor xabar berish qoidalari tushuntirilmoqda.

Yong‘in xavfsizligi faqat maxsus xizmatlarning emas, balki har bir fuqaro va tadbirkorning ham mas’uliyatidir. Oddiy ehtiyot choralariga amal qilish, mavjud vositalarni muntazam tekshirish va xodimlarning amaliy bilimlarini oshirish ko‘ngilsiz hodisalarning oldini olishda muhim o‘rin tutadi.

Shu bilan birga, Qamchiq dovonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yong‘inlarni tezkorlik bilan o‘chirish maqsadida hajmi 50 kub metr bo‘lgan suv hovuzlarini qurish ishlari jadal olib borilmoqda. Ushbu inshootlar o‘t o‘chirish texnikasini zarur suv zaxirasi bilan ta’minlash, harakatlarning tezkorligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Amaliy mashg‘ulotlar, profilaktik tushuntirishlar va muhandislik ishlari yagona maqsadga – inson hayotini asrash, mol-mulkni muhofaza qilish va dovonda xavfsiz muhitni ta’minlashga qaratilgan. Zero, yong‘inning oldini olish har birimizning hushyorligimizdan boshlanadi.

Alisher QUDRATOV,
“Qamchiq” Maxsus qutqaruv boshqarmasi Favqulodda vaziyatlarda boshqarish bo‘limi boshlig‘i, leytenant







ENERGETIKA VA KOMMUNAL SOHA OBYEKTLARIDAGI MASHG‘ULOTLAR





KUZ-QISH MAVSUMINING BARQAROR VA XAVFSIZ O‘TISHINI TA’MINLASH, AHOLI HAMDA IJTIMOIY-IQTISODIY SOHA OBYEKTLARINING UZLUKSIZ FAOLIYATINI YO‘LGA QO‘YISH MUHIM VAZIFALARDAN BIRIDIR. AYNIQSA, ENERGETIKA, GAZ VA KOMMUNAL SOHA OBYEKTLARINING MAVSUMGA PUXTA TAYYORGARLIGI YUZAGA KELISHI MUMKIN BO‘LGAN AVARIYA VA FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLISHDA MUHIM AHAMIYAT KASB ETADI.

Shu bois kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik jarayonida tegishli tashkilotlar tomonidan mavjud muammolarni oldindan aniqlash, zarur kuch va vositalarni shay holatga keltirish hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarda tezkor va samarali harakat qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik doirasida Qashqadaryo viloyatida energetika, kommunal va gaz ta’minoti obyektlarining favqulodda vaziyatlarga tayyorgarligini sinovdan o‘tkazishga qaratilgan maxsus-taktik o‘quv mashqi o‘tkazildi.

O‘quv mashqini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda Qashqadaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi mas’ullari ishtirokida tezkor yig‘ilish o‘tkazilib, mashg‘ulotlarga kuch va vositalarni jalb etish, o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish hamda xavfsizlik choralarini ta’minlash masalalari muhokama qilindi.

Mashg‘ulotlar davomida “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Qashqadaryo hududiy filiali obyektlarida shartli ravishda elektr kabel liniyasining shikastlangan qismini aniqlash va ta’mirlash, nosoz yog‘och ustunni temir-beton ustunga almashtirish bo‘yicha amaliy harakatlar bajarildi. Shuningdek, korxonaning markaziy zaxira ombori, moddiy-texnik bazasi va temir-beton ishlab chiqarish bazasining mavsumga tayyorgarligi hamda mavjud zaxiralari o‘rganildi.

Shuningdek, “Qashqadaryo suv ta’minoti” AJ obyektlarida esa suv ko‘tarish inshootida yuzaga kelgan avariyani bartaraf etish hamda KTEZM bilan bog‘liq vaziyatlarda tezkor harakat qilish bo‘yicha mas’ul xodimlarning amaliy ko‘nikmalari sinovdan o‘tkazildi.

“Milliy elektr tarmoqlari” AJ Qashqadaryo filialiga qarashli Qarshi-220 va G‘uzor-500 podstansiyalarida transformatorlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan avariya va yong‘in holatlarini bartaraf etish, zarur hollarda transformatorni almashtirish hamda elektr ta’minotini tiklash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar bajarildi.

“Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi”da esa elektr ta’minotidagi uzilishlar vaqtida texnologik jarayonlarni xavfsiz to‘xtatish va qayta ishga tushirish, shuningdek, gaz saqlash rezervuarlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan avariya holatlarining oqibatlarini kamaytirish bo‘yicha harakatlar ko‘rib chiqildi.

Shuningdek, “Zevarda” gaz koni, Muborak magistral gaz quvurlari boshqarmasi hamda “Hududgazta’minot” obyektlarida o‘tkazilgan o‘quv mashqlari Qashqadaryo viloyati FVBda tashkil etilgan shtabdan onlayn tarzda kuzatib borildi.

Mashg‘ulotlar yakunida obyektlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha bajarilgan amaliy harakatlar tahlil qilinib, kuch va vositalarning shayligi, idoralararo hamkorlik, tezkor boshqaruv hamda belgilangan vazifalar ijrosining samaradorligi baholandi.

Mazkur maxsus-taktik o‘quv mashqi energetika va kommunal soha obyektlarining mavsumda barqaror va xavfsiz faoliyat yuritishini ta’minlash, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarga tezkor va hamjihatlikda javob qaytarish ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Ruslan MO‘MINOV,
Qashqadaryo viloyat FVB katta inspektori

SHAXSIY MAS’ULIYAT OSHIRILADI

FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI KUNI DOIRASIDA DAVRA SUHBATI O‘TKAZILDI. TADBIRDA AKADEMIYA RAHBARIYATI, FVV SHAXSIY XAVFSIZLIK BOSHQARMASI MAS’UL XODIMI, ADLIYA MAYORI ABROR MUSAYEV, PROFESSOR-O‘QITUVCHILAR, TINGLOVCHILAR VA HARBIY XIZMATCHILAR ISHTIROK ETDI



Muloqot davomida xizmat intizomi va qonuniylikka qat’iy rioya qilish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish hamda shaxsiy mas’uliyatni oshirish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, xizmat faoliyatida uchrashi mumkin bo‘lgan huquqiy xatarlar, ularning oldini olish choralari va mavjud talablar yuzasidan tushuntirishlar berilib, ishtirokchilarning savollariga mutaxassis tomonidan javoblar qaytarildi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, jinoyat qonunchiligini takomillashtirib borish, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishda eng yangi usul va vositalardan foydalanish jinoyatchilik darajasini kamaytirishda kutilganidek samara bermayotganiga guvoh bo‘lib turibmiz. Deyarli barcha davlatlarning jinoyat qonunchiligida takroran sodir etilgan va retsidiv jinoyatlar haqidagi qoidalarning mavjudligi va bu turdagi jinoyatlarning tez-tez sodir etilayotganligi jinoyat uchun berilgan jazo huquqbuzarlarni axloqan qayta tarbiyalash vazifasini juda qiyinchilik bilan bajarayotganligini namoyon qilmoqda.

Mazkur omillar butun dunyoda jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi ishlarga bo‘lgan yondashuvni tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etdi, deyish mumkin. Bundan keyin jinoyatchilikka qarshi kurashish faqatgina sodir etilgan jinoyatlarni ochish, huquqbuzarlarni topish, qonuniy jazo tayinlash va uni ijro etishdan iborat bo‘lib qolishi mumkin emas. Hatto, sodir etilishi rejalashtirilayotgan huquqbuzarlikning oldi olinganda ham bu vazifani bajarishga juda kech kirishilgan deb hisoblash kerak. Shu tariqa dastlab jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatining kichik elementi sifatida paydo bo‘lgan huquqbuzarliklar profilaktikasi keyinchalik jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatidan ham yuqori turuvchi alohida va keng qamrovli faoliyat yo‘nalishiga aylandi, desak adashmagan bo‘lamiz.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy vazifasi jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish, qonuniylikni mustahkamlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o‘rganish va bartaraf etish chora-tadbirlarini ko‘rishdan iborat. Shuningdek, turli davlatlarda bu jarayonni tashkil etish ko‘lamidan kelib chiqqan holda mazkur vazifalar yanada kengaytirilmoqda.

Tadbir yakunida qonuniylik va xizmat intizomiga rioya etish har bir xodimning kasbiy mas’uliyati ekani ta’kidlanib, Akademiyada huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik ishlarni izchil davom ettirish zarurligi aytib o‘tildi.

Farhodjon XOJAYEV,
FVV Akademiyasi Axborot xizmati rahbari, mayor

HUQUQBUZARLIK VA KORRUPSION holatlar muhokamasi



AHOLI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH, FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLISH VA YUZAGA KELGAN HODISALARGA TEZKOR MUNOSABAT BILDIRISHDA HAR BIR XODIMNING XIZMAT INTIZOMI, MAS’ULIYATI HAMDA QONUNIYLIK TALABLARIGA RIOYA ETISHI MUHIM AHAMIYATGA EGA. SHU BOIS SAMARQAND TUMANI FAVQULODDA VAZIYATLAR BO‘LIMIDA SHAXSIY TARKIB O‘RTASIDA XIZMAT INTIZOMINI MUSTAHKAMLASH, HUQUQBUZARLIK VA KORRUPSION HOLATLARNING OLDINI OLISH, SHUNINGDEK, YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHGA QARATILGAN PROFILAKTIK TADBIRLARGA ALOHIDA E’TIBOR QARATILMOQDA.



Jumladan, Samarqand viloyati FVB rahbariyati hamda mas’ul xodimlari ishtirokida bo‘lim shaxsiy tarkibi bilan profilaktik yig‘ilish tashkil etildi.

Unda xodimlar tomonidan xizmat vazifalarini sidqidildan bajarish, qonuniylik va xizmat intizomiga qat’iy rioya qilish, korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish, xizmat faoliyatida halollik va shaffoflik tamoyillariga amal qilish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, xodimlarning xizmat va kundalik faoliyatida mas’uliyatni yanada oshirish, turli huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan tegishli tushuntirishlar berildi.

Shu bilan birga, Samarqand viloyati FVB xodimlari hamda viloyat Ichki ishlar boshqarmasi Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi xodimlari hamkorligida yo‘l harakati qoidalariga rioya etish va yo‘l-transport hodisalarining oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbir ham o‘tkazildi.

Tadbir davomida amaldagi yo‘l harakati qoidalari, ularga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar, transport vositalarini boshqarishda haydovchilarning mas’uliyati hamda yo‘llarda xavfsizlik talablariga rioya etishning ahamiyati tushuntirildi.

Bundan tashqari, xodimlarning xizmat va shaxsiy transport vositalari, shuningdek, yong‘in-qutqaruv texnikalarining texnik holati, haydovchilik guvohnomalari va zarur hujjatlari belgilangan tartibda ko‘zdan kechirildi. Haydovchilarga transport vositalaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga qat’iy amal qilish, yo‘llarda ehtiyotkorlikni oshirish va belgilangan talablarga rioya etish yuzasidan tavsiyalar berildi.

Bunday profilaktik tadbirlar xodimlarning huquqiy bilimlarini oshirish, xizmat intizomi va shaxsiy mas’uliyatini mustahkamlash, korrupsiya hamda boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish, shuningdek, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Zero, intizom, halollik va mas’uliyat — favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda aholi xavfsizligini ta’minlash yo‘lida samarali xizmatning muhim asosidir.

Aziz OCHILOV,
Samarqand tumani FVB boshlig‘i, podpolkovnik

Yomg‘ir ostidagi HALOKAT

“YIGIRMA OLTI YILDAN BUYON QUTQARUVDAMAN. ODAMLARNI QUTQARISHDAN HECHAM CHARCHAMAGANMAN, AKSINCHA, KUCHGA TO‘LGANMAN. ISHIM MENING DARMONDORIM, DEYMAN O‘ZIMCHA. ROSTIYAM SHU-DA, KISHI ISHINI SEVSA UNDAN ZERIKMAYDI, AKSINCHA, UNI QIZG‘ONADI, UNGA FIDOYI VA SADOQATLI BO‘LADI. YANAYAM YAXSHIROQ ISHLASHGA INTILAVERADI. HAR SAFAR XAVF CHAQIRUVIGA CHIQQANIMDA KIMDIR MENING YORDAMIMGA MUHTOJ EKANINI HIS QILIB BIR QADAR G‘URURGA, KUCH-QUVVATGA TO‘LAMAN. MANZILGA SHOSHILAMAN...”



Muxbir qiz suhbatdoshining ishi haqida xuddi sevgan qizi haqida gapirayotgan yosh yigitday to‘lqinlanib gapirishini kuzatib, bir qadar hayratda, “haliyam shunday odamlar bor ekan-da” degan taassurotda suhbatni tinglardi. Qutqaruvchi azbaroyi berilib gapirayotganini ko‘rib, gapini bo‘lishni istamadi. Ammo ichida tezroq qutqaruv voqealaridan aytib bersaydi deya sabrsizlanardi.

“Sizga ko‘p qutqaruv operatsiyalari haqida gapirib berishni istardim. Har birining o‘z tarixi, o‘z hikoyasi bor. 26 yil ichida, eh-he, necha yuzlab chaqiruvlarga chiqqanman. Garchi har biri bir maqsadda – inson hayotini qutqarish maqsadida amalga oshsa-da, barining xulosasi turlicha. Bugun sizga yosh bolalar bilan bog‘liq qutqaruv voqealaridan bir juft aytib beraman. Nega aynan bolalar, chunki bolalarni yaxshi ko‘raman, hech bir bolaning joni azoblanishini istamayman. Ular haqida ko‘proq gapirgim keladi, zora bu hikoyani o‘qigan ayrim kattalar bolalarga yanada e’tiborliroq bo‘lsa.

Bu voqea 2008-yil Navbahor tumanida sodir bo‘lgandi. Odatiy ish kunlarining birida xavf chaqiruvi kelib tushdi. Unga ko‘ra, katta yo‘l trassasida mashina avtohalokatga uchragan, ota-ona va uch bola hayoti xavf ostida edi...

Dispetcherning uch bola degani yuragimga o‘qday qadaldi. Yomg‘ir savalab yog‘ardi o‘sha kuni. Yashin tezligida maxsus ekipirovkani egnimga ilib, bo‘linma bilan voqea joyiga yetib bordik. Chindan ham bir mashina katta tezlikda kelib, daraxtga tikka qadalib qolgandi. Mashinaga qarab bo‘lmas, majaqlanib ketgan. Bilmagan odam ichida tirik odam yo‘q degan xulosaga borardi. Yuragim uvishdi. Shiddat bilan yog‘ayotgan yomg‘irda bolalar bor mashinani nima qilardi odam katta tezlikda haydab deyman, o‘zimcha ichimda koyib. Ammo u hozir koyishimga quloq tuta oladigan ahvolda emas. Birinchi navbatda orqa tarafda hushsiz yotgan uch bolani birin-ketin chiqarib oldik. Keyin ruldagi otani. Onaga kelganda...

Ayol kishi mashinaga chiqsa qayerga o‘tiradi? Burchakka. Oldida o‘tirgan ayol ham o‘rindiqdan oyina tarafga qisilib qolgandi. Hoynahoy derazadan yomg‘irni tomosha qilib, xayol surib ketayotgan bo‘lgan. Ayollar xayol surishni yaxshi ko‘radi-ku. Ayniqsa, yomg‘irda har qanday toshbag‘ir ham bir xayolga cho‘mib oladi. Ammo bu yomg‘ir tomchilari tez orada qon va loyga qorishishini kim ham o‘ylardi...

Xavfsizlik kamarining temiri qattiq bo‘lgani uchunmi hadeganda ham yechilavermadi. Ayolning tomir urishini tekshiraman, yana kamarni uzishga harakat qilaman. Tekshiraman-ishlayman, tekshiraman-ishlayman. Shu zayl 25 daqiqa o‘tib ketdi. Oxiri maxsus qutqaruv qaychisida temirni kesib olib, ayolni mashina ichidan olib chiqishga muvaffaq bo‘ldim. Mashinaning salafani olinmaganidan uning yaqinda olingani bilinib turar, yangi mashinaning oppoq salafani loyli yomg‘ir va qon aralash shamolda hilpirab turardi...

Xayriyat, ota-ona va uch bola ham tirik qutqarildi. Ammo bu halokat ota-onaga butun umrlik saboq bo‘lgan bo‘lsa, ajab emas.

YOSHLIK KO‘LI

“BOLA KATTA BO‘LSA O‘ZINI O‘ZI EPLAB KETADI, DEYDI KATTALAR. AMMO BA’ZAN SHUNDAY VAZIYATLAR BO‘LADIKI, BOLA KATTA BO‘LGANI SARI MUAMMOLARI HAM TOG‘ QADAR O‘SIB BORADI. ASLIDA FARZANDNI HECH BIR YOSHDA O‘Z HOLIGA TASHLAB QO‘YISH KERAK EMAS. AYNIQSA, U O‘SMIR YOSHGA YETGANDA. HAMMA NARSAGA QIZIQIB, “KATTA BO‘LDIM, HAMMA ISHNI ENDI O‘ZIM MUSTAQIL QILA OLAMAN” DEGAN SHIJOAT TOMIRIDA JO‘SHGAN BIR PAYTDA OTA-ONA YANADA ZIYRAK VA SERGAK BO‘LISHI LOZIM. AKS HOLDA...”



Muxbir qiz bu gal qanday hikoya eshitishiga qiziqib borardi. Chunki, odatda, halokat yoqasiga borib qolgan bolalar kichik yoshda bo‘lardi. Bu galgi qahramon bolakay esa o‘smir yoshda. Bu orada o‘zining ham o‘smirlik davrlarini eslab oldi. O‘smirlik – yerga ursa ko‘kka uchadigan qanotli davr. Unda har bir inson biror bir qirrasini kashf qiladi, yo biror ishkal qilib oladi. Yo ochiladi, yo chaqnaydi. Muxbir qiz ham ayni o‘smir yoshida ijodni boshlagan. O‘shandan buyon qo‘lidan qalam tushmaydi. Shu o‘ylar bilan muxbir yana daftariga qutqaruv operatsiyasini qoralashga kirishdi.

“Qutqaruv jarayonlarini sarhisob qilsam, aksariyat bolalarning halokat yoqasiga borib qolishiga ularning ota-onalarining befarqligi, sovuqqonligi sabab. Shumlik ikkinchi daraja. Shunday ota-onalar bor, farzandi yonida yo‘qolib qolsa ham sezmaydi. To begona biror kishi payqab, turtmagunicha axtarmaydi. Bugun sizga aytib bermoqchi bo‘lgan voqeamda ham shunday bo‘lgandi.

Bu voqea 2016-yil 22-iyulda sodir bo‘lgan. Qarang, kunigacha yodimda ekan haliyam. Xotiramga mixday qadalgan ekan. Navoiy shahrida mashhur ko‘l bor. “Yoshlik ko‘li” deydi xalq. Shu ko‘lda har yili navbatchilikda g‘avvos-qutqaruvchilar postda turadi. Shu jumladan, men ham.

Odatiy ish kunlarimizning biri edi. Ko‘l atrofi gavjum, sershovqin. Birov cho‘milgan, birov suratga tushgan, birov video olgan. Hamma o‘zi bilan band. Shu payt 50 metr atrofidagi uzoqlikda joylashgan sohilda qutqaruvchilardan birining hushtak chalgani eshitildi. Suvda odam shunchalar ko‘p ediki, bir qarashda asalga tushgan chumoliday ko‘rinardi odamlar. Shu payt ko‘zim suvda cho‘kayotgan bolaga tushdi, yashin urganday bo‘ldi. Uzoqdan motorli qutqaruv qayig‘i yelday uchib kelardi. Ammo mening sabrim chidamay kiyimim bilan suvga o‘zimni tashladim va bolakayga qarab suza boshladim. Bola zum o‘tmay ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi...

Men va yana bir g‘avvos suvga sho‘ng‘idik. Bolakayning oyog‘iga suv o‘ti ilashib qolgandi. Ko‘karib ketganidan o‘zining ham oyoq-qo‘li uvishib, tomiri tortishib qolgani sezilardi. Tezda bolani sohilga olib chiqib, birinchi tez tibbiy yordam ko‘rsatdim. Ko‘ksini massaj qilib, sun’iy nafas bera boshladim. Zum o‘tmay bolakay o‘qchib-o‘qchib nafas ola boshladi. Bolakayni o‘ziga keltira turib atrofga nazar tashladim, ota-onasi, hoynahoy, xavotir olishayotgandir degan o‘yda. Ammo ota-ona sohilga bamaylixotir, xuddi shunday bo‘lishini bilganday kelardi. Keliboq bolani koyib, undan hol so‘rash, taskin, dalda berish o‘rniga karaxt bolani yanada karaxt qilib, yetaklab ketdi...

Yo‘riqchi-qutqaruvchi **Burxon SOBIROV** hikoyalarini jurnalist **Yulduz O‘RMONOVA** oqqa ko‘chirdi.

XAVFNI VAQTIDA ANIQLASH – hayotni asrash demak





ATROFIMIZDA INSON HAYOTI VA SALOMATLIGIGA TAHDID SOLISHI MUMKIN BO‘LGAN TURLI XAVFLAR MAVJUD. ULAR HAR DOIM HAM O‘ZINI OSHKOR QILAVERMAYDI. BA’ZAN U INSON HAR KUNI FOYDALANADIGAN, XONADONNING AJRALMAS QISMIGA AYLANGAN JIHOZLAR ORTIDA YASHIRINADI.

Gaz sizib chiqishi yoki is gazining to‘planishi ham shunday tahdidlardan biri bo‘lib, ularni o‘z vaqtida aniqlash inson hayotini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois uy xavfsizligi masalasida ehtiyotkorlik bilan bir qatorda, xavfni erta aniqlash imkonini beradigan texnik vositalardan foydalanish ham muhim hisoblanadi.

Ayniqsa, kuz-qish mavsumida isitish moslamalaridan foydalanish ortishi bilan xonadonlarda xavfsizlik talablariga rioya etish masalasi yanada muhim tus oladi. Sovuq kunlarda uylarni isitish uchun gaz pechlari, turli isitish qurilmalari va boshqa jihozlar ishga tushiriladi. Biroq ulardan noto‘g‘ri foydalanish, uskunalarning nosozligi, dudbo‘ronlarning yaxshi ishlamasligi yoki xonada havo almashinuvi yetarli bo‘lmasligi insonlar hayotiga jiddiy va o‘nglash mushkul bo‘lgan xavflarni tug‘dirishi mumkin.



Bu borada eng xalokatli omillardan biri is gazidir. Is gazi aslida rangsiz va hidsiz bo‘lgani sababli inson tomonidan sezilmasligi mumkin. Is gazi organizmga nafas orqali kirib, qonda kislorod tashilishiga to‘sqinlik qiladi. Natijada bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, holsizlik, ko‘ngil aynishi va hush-behush bo‘lish kabi alomatlar kuzatilishi mumkin. Bunday belgilar paydo bo‘lganda vaziyatni oddiy charchoq yoki betoblik bilan izohlab, vaqt yo‘qotish xavfli oqibatlarga olib kelishi ehtimoli bor.

Shu sababli xavfni faqat hid yoki boshqa sezilarli belgilar orqali aniqlashga tayanib bo‘lmaydi. Aynan shunday vaziyatlarda gaz analizatorlari va tegishli signalizatsiya qurilmalarining ahamiyati ortadi. Ular havodagi muayyan gaz miqdorini aniqlash va xavfli daraja yuzaga kelganda ovozli yoki yorug‘lik signali orqali ogohlantirish uchun xizmat qiladi. Biroq qurilmani tanlashda muhim bir jihatni unutmaslik lozim: tabiiy gaz sizib chiqishini aniqlaydigan aniqlagich bilan is gazini aniqlaydigan aniqlagich bir xil vazifani bajarmaydi.

Tabiiy gaz sizib chiqishini aniqlashga mo‘ljallangan qurilma gaz-havo aralashmasi bilan bog‘liq xavflardan ogohlantirishi mumkin. Is gazini aniqlovchi qurilma esa havodagi uglerod oksidini sezish uchun ishlab chiqiladi. Shuning uchun xonadon uchun qurilma xarid qilayotganda uning aynan qaysi gazni aniqlashga mo‘ljallanganini, foydalanish shartlarini va ishlab chiqaruvchi ko‘rsatmalarini diqqat bilan o‘rganish zarur. Faqat gaz sizib chiqishini aniqlaydigan qurilma o‘rnatilgan bo‘lsa, is gazidan ham himoya ta’minlandi, deb hisoblash to‘g‘ri emas.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi ham bu masalaga alohida e’tibor qaratmoqda. Vazirlikning 2026-yil 8-oktabrda e’lon qilingan tavsiyasida xonadonlarda isitish pechlari va gaz plitalari yaqiniga gaz analizatorlari o‘rnatish muhimligi ta’kidlangan. Bu tavsiya uy sharoitida xavfni erta aniqlash va uning oldini olishga qaratilgan profilaktik choralar ahamiyatini yana bir bor ko‘rsatadi. Hududlarda ham aholi xonadonlariga gaz detektorlari va himoya vositalarini o‘rnatish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Bunday qurilmalarning samarasi ulardan to‘g‘ri foydalanishga ham bog‘liq. Qurilma belgilangan joyga o‘rnatilishi, ishlab chiqaruvchi ko‘rsatmalariga muvofiq ishlatilishi va muntazam tekshirib turilishi kerak. Batareyada ishlaydigan qurilmalarda quvvat manbai holatiga, elektr tarmog‘iga ulanadiganlarida esa elektr ta’minotiga e’tibor berish zarur. Signalizatorning ovozli ogohlantirishi ishlashini vaqti-vaqti bilan tekshirish ham muhim. Buning uchun qurilma yo‘riqnomasida belgilangan sinov usulidan foydalanish lozim.

Shu bilan birga, gaz analizatori barcha xavflarni o‘z-o‘zidan bartaraf etadigan vosita emas. Uning mavjudligi gaz jihozlarining texnik holatini nazorat qilish yoki xavfsizlik qoidalariga rioya etish zaruratini kamaytirmaydi. Aksincha, texnik himoya vositalari kundalik ehtiyot choralarini to‘ldirishi kerak.

Gaz plitalari va isitish moslamalaridan belgilangan maqsadda foydalanish, nosoz uskunalarni ishlatmaslik, dudburon va tutun chiqarish yo‘llarini muntazam tekshirtirish, xonada zarur havo almashinuvini ta’minlash muhim talablar sirasiga kiradi. Isitish maqsadida gaz plitasidan foydalanish, gaz uskunalarini o‘zboshimchalik bilan ta’mirlash yoki tutun chiqarish yo‘llaridagi nosozliklarga befarq qarash mumkin emas. Bunday holatlar xavfning ortishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Afsuski, xavfsizlik qoidalariga rioya qilinmaganda yoki xavf belgilari o‘z vaqtida anglanmaganda, oqibatlar og‘ir bo‘lishi mumkin. Shuning uchun gaz hidi sezilganida elektr jihozlarini yoqish yoki o‘chirish, ochiq olovdan foydalanish, yonuvchan jihozlarga bee’tibor bo‘lish mumkin emas. Imkon qadar xavfsiz tarzda gaz ta’minotini to‘xtatish, eshik va derazalarni ochib, binoni tark etish hamda tashqaridan tegishli xizmatlarga xabar berish zarur. Is gazidan zaharlanish gumoni bo‘lsa, jabrlanganlarni xavfsiz joyga olib chiqish, tez tibbiy yordam chaqirish va mutaxassislar ko‘rsatmalariga amal qilish kerak. Bunday vaziyatlarda xavfli xonaga qayta kirish yoki muammoni mustaqil bartaraf etishga urinish mumkin emas.

Xonadon xavfsizligi faqat alohida bir qurilmaga bog‘liq emas. Bu texnik vositalar, soz uskunalar, to‘g‘ri foydalanish qoidalari va insonning mas’uliyatli munosabati birgalikda ta’minlaydigan himoya tizimidir. Gaz analizatorini o‘rnatish muhim qadam, ammo uning qanday gazni aniqlashi, sozligi va to‘g‘ri ishlatilishi ham shunchalik ahamiyatli.

Zero, xavfsizlik xavf yuzaga kelganda chora izlash emas, balki uning oldini olish uchun bugunoq mas’uliyat bilan harakat qilishdir. Xonadondagi oddiy ehtiyot chorasi, o‘z vaqtida o‘rnatilgan va soz holatda saqlangan signalizator hamda xavfsizlik qoidalariga qat’iy rioya qilish inson hayoti va yaqinlarimiz salomatligini asrashga xizmat qiladi.

Gulnora SHERMATOVA,
“Vaziyat” muxbiri

XURRAK – ODDIY ODATMI YOKI KASALLIK BELGISI?

INSON SALOMATLIGI HAQIDA GAP KETGANDA KO‘P HOLLARDA KO‘ZGA KO‘RINADIGAN ALOMATLARGA E’TIBOR BERAMIZ. AMMO SIHATIMIZ BILAN BOG‘LIQ AYRIM MUAMMOLAR TUNDA UYQU PAYTIDA NAMOYON BO‘LADI. XURRAK ANA SHUNDAY HOLATLARDAN BIRI HISOBLANADI.



Ko‘pchilik xurrakni charchoq yoki chuqur uyqu natijasi deb biladi. Aslida esa bu tovush ba’zan nafas yo‘llaridagi o‘zgarishlarga belgi berayotgan bo‘lishi mumkin. Shu vaziyatda, xurrakning qachon oddiy holat, qachon jiddiy e’tibor talab qilish shart bo‘ladigan belgi ekanligini ajratib olish muhim hisoblanadi.

Xurrak uyqu vaqtida yuqori nafas yo‘llaridan havo o‘tayotganda yumshoq to‘qimalarning tebranishi natijasida paydo bo‘luvchi jarayon. Buning paydo bo‘lishiga burun bitishi, allergiya, burun to‘sig‘ining qiyshiqligi, tomoq tuzilishining o‘ziga xosligi yoki ortiqcha vazn sabab bo‘lishi mumkin. Shuningdek, chalqancha yotib uxlash ham ayrim odamlarda xurrakni kuchaytiradi. Chunki bu holatda til va tomoqdagi yumshoq to‘qimalar nafas yo‘lini toraytirishi ehtimoli bor.

Xurrak vaqti-vaqti bilan, shamollash yoki burun bitish holatlarida ham kuzatilishi mumkin. Lekin u tez-tez takrorlansa, ovozi baland bo‘lsa va boshqa alomatlar bilan kechsa, bu holatga befarq qaramaslik darkor.

> Shunisi qiziqki, xurrakning balandligi muammoning qanchalik jiddiy ekanini har doim ham ko‘rsatmaydi. Baland xurrak otadigan odamda jiddiy nafas buzilishi umuman bo‘lmasligi ham mumkin. Aksincha, ovozning o‘ziga qarab sog‘liqdagi muammoni inkor etib ham bo‘lmaydi. Demak, masalaning mohiyati xurrakning qanchalik balandligida emas, uning qanday kechayotgani va boshqa belgilar bilan birga kuzatilayotganidadir.

Agar odam uyqu vaqtida qattiq xurrak otsa-yu, keyin nafas olishi bir muddat to‘xtagandek bo‘lsa, ortidan hansirab yoki keskin nafas olsa, bunga jiddiy e’tibor berish kerak. Bu holat “obstruktiv uyqu



apnoesi” deb ataladigan nafas buzilishining belgisi bo‘lishi mumkin. Bunda uyqu vaqtida yuqori nafas yo‘llari qayta-qayta torayadi yoki vaqtincha to‘silib qoladi.

Bunday vaziyatni ko‘pincha odamning o‘zi sezmaydi. Tabiiyki, uxlayotgan odam o‘zini o‘zi eshitmaydi. Uning yonida uxlaydigan kishi nafas olishdagi tanaffuslarni, noodatiy holatlarni payqashi mumkin. Ertalab bosh og‘rig‘i bilan uyg‘onish, kechasi tez-tez uyqudan cho‘chib ketish, yetarlicha uxlagan bo‘lsa-da, kunduzi charchoq va uyquchanlikni his qilish ham e’tiborga loyiq belgilar hisoblanadi.

Muammoning jiddiyligi shundaki, nafas olishning qayta-qayta buzilishi uyqu sifatini pasaytiradi. Davolanmagan uyqu apnoesi yuqori qon bosimi va ayrim yurak-qon tomir kasalliklari xavfining ortishi bilan bog‘liq. Biroq har doim ham emas, bu belgilar boshqa sabablarga ko‘ra ham paydo bo‘lishi mumkin. Shu sababli xurrak otayotgan har bir kishida bunday kasallik bor, deb xulosa chiqarish noto‘g‘ri. Shuning uchun bu jarayonga mustaqil tashxis qo‘yib, davolanishga shoshilmaslik kerak. Avvalo, shifokor tekshiruvlaridan o‘tib holatga tibbiy jihatdan baho berish va mutaxassis tavsiyasi hamda kuzatuvi ostida davolanish lozim.

Xurrakni ko‘pincha katta yoshli erkaklarga xos holat sifatida tasavvur qilishadi. Aslida u jins tanlamaydi, ayollarda ham, bolalarda ham uchraydi. Ayniqsa, munta-



zam xurrak otadigan bolalarga hammadan ham e’tiborli bo‘lish kerak. Ayrim hollarda bunga burun-halqum sohasidagi adenoidlar yoki kattalashgan bodomcha bezlari sabab bo‘lishi mumkin.

Agar bolaning uyqusi bezovta bo‘lsa, u og‘iz ochib nafas olsa, tunda tez-tez uyg‘onsa yoki kunduzi diqqatini jamlashda qiynalsa, pediatr bilan maslahatlashish lozim. Bunday belgilarni shunchaki odat deb qabul qilish bolaning uyqusi bilan bog‘liq muammoni vaqtida aniqlashga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Xurrak otadigan odam yonidagi odamning uyqusiga ham ta’sir qiladi. Muntazam ravishda baland tovush ostida uxlash uyquning bo‘linishiga, ertalab charchoq va asabiylik sezilishiga olib kelishi mumkin. Shu ma’noda, xurrakni faqat bir kishining muammosi deb bo‘lmaydi: u butun oilaning dam olishiga ta’sir ko‘rsatishi ehtimol.

Buning uchun, avvalo, sababni aniqlash kerak. Agar xurrak chalqancha yotganda kuchaysa, yonboshlab uxlash birmuncha yordam berishi mumkin. Burun bitishi yoki allergiya mavjud bo‘lsa, tegishli davolash choralarini ko‘rish zarur. Ortiqcha vazn ham xurrakka ta’sir qilishi mumkinligi sababli, sog‘lom ovqatlanish va muntazam jismoniy faollik foyda beradi.

Ammo bu choralar barcha holatlarda birdek samara bermaydi. Xurrak muntazam va baland bo‘lsa, nafas olishdagi tanaffuslar kuzatilsa yoki odam kunduzi kuchli uyquchanlikni his qilsa, shifokorga murojaat qilish lozim. Zaruratga qarab, Lor shifokori yoki uyqu buzilishlari bo‘yicha mutaxassis ko‘rigi va maxsus tekshiruvlar tavsiya etiladi. Agar uyqu apnoesi aniqlansa, davolash usuli kasallikning og‘irligi va bemorning holatiga qarab belgilanadi.

Turli vositalarni sinab ko‘rish yoki tanishlar tavsiyasi bilan davolanish o‘rniga, muammoning asl sababini bilish muhim. Chunki bir kishida xurrak burun bitishi bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqasida nafas yo‘llarining torayishi sababli yuzaga kelishi mumkin.

Uyqudagi o‘zgarishlarga beparvo qarash, ularni oddiy holat deb, “O‘rganib qolganman” yoki “bu o‘zi shunaqa” deb baholash va qabul qilish ayrim kasalliklarni o‘z vaqtida aniqlashga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu bois yaqinlarimizning uyqusi bilan bog‘liq holatlarga ham e’tiborli bo‘lish, zarur paytda mutaxassisga murojaat qilish muhim. Zero, salomatlikni asrash faqat kasallik paydo bo‘lganda davolanishdan emas, organizm berayotgan ilk belgilarni vaqtida anglash, ularni bartaraf etishdan boshlanadi.

Gulnora SHERMATOVA
tayyorladi.

Muzlatgich ichidagi gaz
To‘satdan, kutilmaganda
Maxsus kiyim
Hofiz ... Xudoyshukurov
Yuzxotirlik, istihola
Bobur Mirzo tug‘ilgan viloyat
Qizlar ismi
Matematik mashq
Hind xonandasi ... Mangeshkar
Choy qoldig‘i
“Alini alamini ...dan oldi!”
Hamma vaqt, mudom
Infeksiya, bakteriya
Fakultet rahbari
Sabot, matonat
Karabas-... (“Buratino”)
Madrid futbol klubi
Komik aktrisa Klara ...
Kuchli yomg‘ir
Xorun ...-Rashid (xalifa)
Yirik tarixiy davr
“To‘p darvozada!”
Shoira Marhabo ...
Shoumen Asqar ... (FTV)
Qo‘l qismi
Xalos imkoni, umid
Ko‘plik qo‘shimchasi
Dahan, iyak
Rossiyadagi to‘qimachilar shahri
Motor detali
Anzirat buvini bo‘lajak kelini
“Qirol ...” (Shekspir)
Harbiylar qonuni
“Oriyat ...” (radio)
“Kalomi ehtirom ...”
Musiqa yaratuvchi ijodkor
Gap yakunidagi belgi
Kirakash mashina
...-Peterburg
Asal..., qovog‘...
Mohir, usta
Maktab bitiruvchisi hujjati
220 V
Adib ... Ahmad (Farmonbibi)
Rustam Rustamga nisbatan
Bardoshli (sinonim)
Aktyor ... Xolmirzayev
Futbolchi ... O‘runov
G‘irashira payt
“Jonini ...ga berib ishladi!”
Qovun bo‘lagi
...-Anjeles
Chin, haqiqat
“Har ... qilsa o‘ziga”
Osiyodagi yirik cho‘l
“O‘zingni ... bilsang, o‘zgani sher bil”
Litva valyutasi
“Lezginka”dagi hayqiriq
Sel, zilzila-tabiiy ...lar
Kubalik siyosatchi Fidel ...
Aktrisa Zuhra ...
Kurashchilar sholchasi
Hurmat, e’zoz
Poyezd haydovchisi
Navoiy viloyati tumani
Juma-dulla, Aziz ...
Inson bioquvvati
Orzuni ro‘yobga chiqishi
Samoviy uchoq
Podsho askari
Xonanda ... Mirhamidova
G‘arbga teskari tomon
So‘z turkumi
Yevropacha torli soz
Qadimda shoh xabarchisi
Yulduz burji (23.07-23.08)
Braziliya to‘tiqushi
G‘alaba xitobi
“... va Lakxan” (b/f)
Charos, obaki, husayni
Shahram G‘iyosov sporti
Atama, termin
Okean ostidagi marjon qoyasi
Dublyaj aktrisasi ... Ahmedova
Moyana, oylik
Leonardo ... Vinchi
Yo‘l ...si, “znak”
San’at (lotincha)
Telefonda video aloqa
... Yunusov (O‘tkuriy)
Nazr, baxshida
Yapon elektron firmasi
50 ta shtatli mamlakat
Asadbek, Elchin, Shomil (asar)
Gunohidan o‘tish
Ichra, uzra
Yaxshi baho
Tezlashtirilgan qo‘shiq
Nafas qisish xastaligi
Jamoa yutug‘i
“v” inglizcha
Ont ichish
...vvoy, ...tarius
To‘y taomi
“Kecha ... kunduz” (Cho‘lpon)



Tuzuvchi: **O.XUDOYQULOV**

AJDODLAR O‘GITI – TUGANMAS XAZINA



Insoniyat tarixida har bir xalq o‘z farzandlarini ezgulikka yo‘naltirish, ularni halol, fazilatli va yurt uchun foydali qilib tarbiyalash yo‘llarini izlagan. Bu izlanishlar har bir millatning o‘ziga xos ma’naviy maktabini yaratgan. Bizning xalqimiz bu borada butun insoniyatga ibrat bo‘lgulik bebaho meros – pand-nasihat adabiyotini vujudga keltirgan. “Avesto”dagi ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal g‘oyasidan tortib Alisher Navoiyning umrboqiy hikmatlarigacha bo‘lgan bu xazina ming yillar davomida ajdodlarimizning axloqiy ko‘zgusi, tarbiya dasturi va ma’naviy tayanchi bo‘lib keldi. Ammo bugun bir savol ko‘ndalang turadi: ana shu boy meros yosh avlod tarbiyasida yetarlicha ishlatilyaptimi? Afsuski, bu savolga hozircha to‘liq ijobiy javob berish qiyin. Asrlar sinovidan o‘tgan boy meros bilan uning bugungi hayotdagi kam qo‘llanishi o‘rtasidagi ziddiyat – jiddiy e’tibor va yechim talab qiladi.



MING YILLIK TARBIYA MAKTABI

Avvalo, biz qanday merosga ega ekanimizni aniq tasavvur etishimiz kerak. Pand-nasihat, ya’ni nasihatnoma janri Sharq mumtoz adabiyotining eng qadimiy va salmoqli qatlamlaridan biridir. Uning ildizlari xalqimizning eng qadimgi yozma yodgorligi “Avesto”ga borib taqaladi: bu muqaddas kitobda inson kamolotining uch ustuni – ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal birligi ulug‘lanadi, mehnat, rostgo‘ylik, ota-ona hurmati ulug‘ qadriyat deb qaraladi. O‘rxun-Enasoy bitiklarida esa el-yurt birligini asrash, ota-bobolar yo‘lidan og‘ishmaslik haqidagi o‘gitlar mujassam.

Islom madaniyati doirasiga kirganimizdan so‘ng bu an’ana yangi mazmun va shakllar bilan boyidi. IX – XII asrlarda pand-axloq adabiyoti haqiqiy yuksalish davrini boshdan kechirdi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”) dostoni turkiy tildagi didaktik adabiyotning ilk yirik yodgorligi bo‘lib, unda bilimning qadri, adolatli boshqaruv, farzand tarbiyasi kabi o‘nlab mavzular qalamga olingan. Muallif aql va bilimni insonning eng buyuk boyligi deb biladi. Kaykovusning “Qobusnoma” asari esa ota o‘gitlarining mumtoz namunasi sifatida yetti yuz yildan beri sevib o‘qiladi. Unda ota-ona hurmati, ilm va hunar o‘rganish, so‘zlashuv odobi, do‘st tanlash, mehmondorchilik kabi hayotning deyarli barcha sohalariga oid o‘gitlar mehrli otaning samimiy maslahati ohangida bayon etilgan.

Bu davr adabiyotida xorazmlik buyuk olim va shoir Rashididdin Vatvotning o‘rni alohida. U hazrat Ali karramallohu vajhahuning hikmatli so‘zlarini sharhlab, nazm bilan bezab bergan; bu an’ana keyinchalik Navoiyning “Nazm ul-javohir” asarida yuksak cho‘qqiga ko‘tarildi. Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” dostoni bilim, til odobi, saxiylik haqidagi o‘gitlardan iborat bo‘lib, unda bilim suyak ichidagi ilikka qiyoslanadi: ilik suyakka quvvat bergani kabi, bilim ham insonga kuch va sharaf bag‘ishlaydi.

XIII – XV asrlarda bu an’ana yanada rivojlandi. Sa’diy Sheroziyning “Guliston” va “Bo‘ston” asarlari, Farididdin Attorning “Pandnoma”si, Jaloliddin Rumiyning “Ma’naviy masnaviy”si, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”i – bularning barchasi yosh avlodni tarbiyalashning betakror vositalari bo‘ldi. Nihoyat, bu buyuk an’ana o‘zbek mumtoz adabiyotining quyoshi Alisher Navoiy ijodida eng yuksak nuqtasiga yetdi. Uning “Hayrat ul-abror” dostoni, “Arba’in”, “Nazm ul-javohir” va ayniqsa umri oxirida yaratgan “Mahbub ul-qulub” asari o‘zbek pand-axloq adabiyotining gultoji sanaladi.

Ko‘rinib turibdiki, bizning ixtiyorimizda bir necha ming yillik, sinovdan o‘tgan tayyor tarbiya maktabi bor. Bu maktabning darslari bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

MUAMMO: UZILIB QOLAYOTGAN RISHTA

Shunday boy merosga ega bo‘la turib, biz jiddiy muammoga duch kelmoqdamiz. Bugungi yoshlar globallashuv va misli ko‘rilmagan axborot oqimi davrida voyaga yetmoqda. Ular kun bo‘yi telefon ekraniga termilib, dunyoning turli burchaklaridan kelayotgan kontentni iste’mol qiladilar. Bu oqimda, afsuski, ezgu va foydali ma’lumotlar bilan birga yot g‘oyalar, zo‘ravonlik, axloqsizlik va ma’naviy bo‘shliqni targ‘ib qiluvchi mazmunlar ham kam emas. Yosh va tajribasiz ong bu oqimda osongina yo‘ldan ozishi mumkin.

Natija ko‘z o‘ngimizda: ayrim yoshlarda odob-axloq me’yorlariga beparvolik, kattalarga va ustozlarga hurmatsizlik, mehnatdan qochish, yengil-yelpi hayot tarziga intilish kabi illatlar kuzatilmoqda. Oila qadriyatlari, milliy an’analarga sovuqqonlik, o‘z tarixi va tiliga befarqlik – bular ham o‘sha ma’naviy bo‘shliqning oqibatlaridir. Bu holat jamiyatimiz kelajagi uchun jiddiy xavf tug‘diradi, zero bugungi yoshlar – ertangi xalq, ertangi davlat.

Eng achinarlisi shundaki, bu muammoga qarshi bizda tayyor “dori” – ajdodlar yaratgan tarbiya vositalari mavjud bo‘la turib, ular ishlatilmay yotibdi. Kaykovusning “Qobusnoma”si, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”i, Navoiyning “Mahbub ul-qulub”i ko‘pchilik xonadonlarda chang bosib turibdi. Ota-bobolarimiz yod olib, farzandlariga o‘git qilgan hikmatlar bugungi avlodga ko‘pincha yetib bormayapti. Ajdodlar tafakkuri bilan bugungi avlodni bog‘lab turgan ma’naviy rishta uzilish xavfi ostida qolmoqda.

Bu uzilishning bir necha sababi bor. Birinchidan, ta’lim tizimida mumtoz adabiyotga, xususan pand-axloq merosiga yetarlicha e’tibor qaratilmayapti; darslardagi soatlar cheklangan. Ikkinchidan, darslarda hikmatlar ko‘pincha quruq yodlatish darajasida o‘tiladi – ularning hayotiy mohiyati, bugungi kun bilan bog‘liqligi ochib berilmaydi. Yodlangan, ammo yurakka yetib bormagan hikmat esa tez unutiladi. Uchinchidan, mumtoz asarlarning tili – arabiy va forsiy so‘zlarga boy, eski uslubdagi til – bugungi yoshlarga begonaroq tuyuladi, bu esa ularni asardan uzoqlashtiradi. To‘rtinchidan, oilada ham bu borada bo‘shliq seziladi: ko‘p ota-onalar o‘zlari ham mumtoz merosdan yetarlicha xabardor emaslar.

Bu muammoning yechimi sifatida shuni alohida ta’kidlashni istardik: moziy merosidan voz kechish emas, balki uni bugungi yoshlarga tushunarli tilda, zamonaviy usullar bilan, hayotiy misollar vositasida yetkazish maqsadga muvofiqdir. Bu vazifa bir necha yo‘nalishda amalga oshirilishi mumkin.

XULOSA

Ajdodlar o‘giti – o‘tmishda qolib ketgan eskilik emas, balki bugungi va ertangi avlod uchun ham yonib turgan mayoqdir. U insonni halollikka, mehnatsevarlikka, ilmga intilishga, ota-ona va ustoz hurmatiga, el-yurt muhabbatiga chorlaydi – bular esa hech qachon eskirmaydigan umuminsoniy qadriyatlardir. Bu merosni yoshlar qalbiga yetkaza olsak, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida yetuk, fazilatli, yurtiga sodiq avlodni tarbiyalagan bo‘lamiz.

Bu – oson vazifa emas, ammo uning uddasidan chiqish imkoniyati bizning qo‘limizda. Buni amalga oshirish uchun ta’lim tizimi, oila, jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari hamjihat bo‘lib harakat qilishi lozim. Har bir ota-ona, har bir o‘qituvchi, har bir ziyoli o‘zini bu muqaddas ishning ishtirokchisi deb bilishi kerak. Zero, o‘z o‘tmishini bilgan, ajdodlar hikmatini qalbiga jo etgan avlodgina buyuk kelajakni bunyod eta oladi. Moziydan kelayotgan bu nurni so‘ndirmay, aksincha, uni bugungi avlod qalbida yoritish – barchamizning oldimizdagi ulug‘ va sharafli burchdir.

Zuhra QODIROVA,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Vaziyat gazetasi
MUASSIS: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir: podpolkovnik **Rustam ALIMOV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta tahririyat kompyuterxonasida sahifalandi.

Gazeta har haftaning payshanba kuni chiqadi. Topshirish vaqti – 15.00. Topshirildi – 15.00.

Bosh muharrir o‘rinbosari: Dilmurod DO‘ST
Navbatchi muharrir: M.Tojimamatova
Musahhih: B. Yunusova
Sahifalovchilar: M. Hamroyev, B. Salohiddinov

Tahririyat manzili: 100084, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Sh. Rashidov ko‘chasi, 17-uy.
@vaziyat_muhofaza

O‘zbekiston Respulikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2007-yil 3-yanvarda 0096-son bilan ro‘yxatga olingan.

Gazetadan olingan materiallar manbasi ko‘rsatilishi shart.

Gazeta “Sharq” NMAK bosmaxonasida bosildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.
Buyurtma № G-1049.
Bichimi: A3, hajmi: 4 b.t.
Adadi – 20075 nusxa.

ISSN 2091-5292

Gazetani elektron ko‘rinishda o‘qishingiz mumkin:

Indeks: yakka obunachilar va tashkilotlar uchun – 382